



Бош илмий-методик  
марказ

**FARG‘ONA DAVLAT  
UNIVERSITETI HUZURIDAGI  
PEDAGOG KADRLARNI QAYTA  
TAYYORLASH VA ULARNING  
MALAKASINI OSHIRISH  
MINTAQAVIY MARKAZI**



---

**“O‘ZBEKISTON DAVLATCHILIGI TARIXI:  
YANGICHA QARASHLAR VA ZAMONAVIY  
YONDASHUVLAR”**

**MODULI BO‘YICHA  
O‘QUV – USLUBIY MAJMUUA**

---

**S.V. Yo‘ldoshev tarix fanlari  
bo‘yicha falsafa doktori  
(PhD)**

**2022**

**Mazkur o‘quv-uslubiy majmua Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligining 2020 yil dekabrda 648-sonli buyrug‘i bilan tasdiqlangan o‘quv reja va dastur asosida tayyorlandi va FarDU Ilmiy kengashining 2021 yil «30» dekabrda 5-sonli qarori bilan tasdiqlangan.**

**Tuzuvchilar: S.V. Yo‘ldoshev – FarDU tarix fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD)**

**Taqrizchilar: M. H. Isomiddinov – FarDU tarix fanlari doktori, professor  
B.A.Usmonov – FarDU tarix fanlari doktori, DSc**

## **М У Н Д А Р И Ж А**

I.	ISHCHI DASTUR .....	4
II.	MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM METODLARI .....	21
III.	NAZARIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI .....	25
IV.	AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI .....	78
V.	GLOSSARIY .....	115
VI.	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI .....	140

# I. ISHCHI O‘QUV DASTURI

## KIRISH

Dastur O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentabrda tasdiqlangan “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-4947-son, 2019 yil 27 avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-son, 2019 yil 8 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmonlari hamda O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 23 sentabrdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 797-sonli Qarorlarida belgilangan ustuvor vazifalar mazmunidan kelib chiqqan holda tuzilgan bo‘lib, u oliy ta’lim muassasalari pedagog kadrlarining kasb mahorati hamda innovatsion kompetentligini rivojlantirish, sohaga oid ilg‘or xorijiy tajribalar, yangi bilim va malakalarni o‘zlashtirish, shuningdek amaliyotga joriy etish ko‘nikmalarini takomillashtirishni maqsad qiladi.

### I. Modulning maqsadi va vazifalari

**“O‘zbekiston davlatchiligi tarixi: yangicha qarashlar va zamonaviy yondashuvlar” modulining maqsadi,** pedagog kadrlarning o‘quv-tarbiyaviy jarayonlarni yuksak ilmiy-metodik darajada ta’minlashlari uchun zarur bo‘ladigan kasbiy bilim, ko‘nikma va malakalarini muntazam yangilash, malaka talablari, o‘quv reja va dasturlari asosida ularning kasbiy kompetentligi va pedagogik mahoratini doimiy rivojlanishini ta’minlashdan iborat.

**“O‘zbekiston davlatchiligi tarixi: yangicha qarashlar va zamonaviy yondashuvlar” modulining vazifalari:**

- “O‘zbekiston tarixi” yo‘nalishida pedagog kadrlarning kasbiy bilim, ko‘nikma, malakalarini uzluksiz yangilash va rivojlantirish mexanizmlarini yaratish;

- zamonaviy talablarga mos holda oliy ta‘limning sifatini ta‘minlash uchun zarur bo‘lgan pedagoglarning kasbiy kompetentlik darajasini oshirish;

- pedagog kadrlar tomonidan zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalari va xorijiy tillarni samarali o‘zlashtirilishini ta‘minlash;

- maxsus fanlar sohasidagi o‘qitishning innovatsion texnologiyalari va ilg‘or xorijiy tajribalarni o‘zlashtirish;

- “O‘zbekiston tarixi” yo‘nalishida qayta tayyorlash va malaka oshirish jarayonlarining fan va ishlab chiqarish bilan integratsiyasini ta‘minlash.

**Kurs yakunida tinglovchilarning bilim, ko‘nikma va malakalari hamda kompetentligiga qo‘yiladigan talablar:**

– **O‘zbekiston davlatchiligi tarixi: yangicha qarashlar va zamonaviy yondashuvlar** fani bo‘yicha tinglovchilar quyidagi yangi bilim, ko‘nikma, malaka hamda kompetensiyalarga ega bo‘lishlari talab etiladi:

**Tinglovchi:**

– fanning predmeti, nazariy-metodologik asoslari, manbalari, tarix va tarixiy xotiraning milliy o‘zlikni anglashdagi ahamiyati;

– O‘zbekiston davlatchiligi tarixini davrlashtirish masalalari;

– Xususiy mulkchilikning kelib chiqishi va ilk davlatchiligimiz ildizlarini;

– O‘zbekistonda ilk o‘rta asrlar davri yangi shaharlarning shakllanishini;

– Respublikani yanada rivojlantirishning strategik **yo‘nalishlarini bilishi** kerak.

**Tinglovchi:**

– Ijtimoiy fanlarni o‘qitish bo‘yicha yangi texnologiyalarni amaliyotda qo‘llash;

- O‘zbekiston davlatchiligi tarixi: yangicha qarashlar va zamonaviy yondashuvlar bo‘yicha ma’ruza, amaliy mashg‘ulot va nazorat ishlarini tashkil etish;
- pedagogik jarayonda muloqot uslublarini to‘g‘ri qo‘llay olish ko‘nikmalariga ega bo‘lishi lozim.

**Tinglovchi:**

- O‘zbekiston davlatchiligi tarixi: yangicha qarashlar va zamonaviy yondashuvlarfannining zamonaviy yo‘nalishlarini ishlab chiqish va ommalashtirish;
- Ijtimoiy fanlarni turli sohalarga tatbiq qilish va dasturlar paketi yordamida yechishning zamonaviy usullarini qo‘llash malakalariga ega bo‘lishi lozim.

**Tinglovchi:**

- ijtimoiy fanlarning dasturlar paketini o‘quv jarayoniga tatbiq etish;
- ijtimoiy fanlarni dasturlar paketi yordamida yechishning zamonaviy masalalarini tahlil qila olish;
- O‘zbekiston tarixiga oid masalalarni yechishda zamonaviy texnologiyalar va usullardan foydalana olish;
- ijtimoiy fanlar sohasida kasbiy faoliyat yuritish uchun zarur bo‘lgan bilim, ko‘nikma, malaka va shaxsiy sifatlarga ega bo‘lish;
- ilg‘or axborot-texnologiyalarida ishlash;
- videodarslarni tayyorlash;
- egallangan tajribani tanqidiy ko‘rib chiqish qobiliyati, zarur bo‘lganda o‘z kasbiy faoliyatining turi va xarakterini o‘zgartira olish;
- ijtimoiy fanlarda tizimli tahlil usulidan foydalanish yo‘llarini ishlab chiqish;
- Mustaqil O‘zbekistondagi islohatlarning nazariy konseptual asoslari, innovatsiyalarni ta’lim tizimiga tadbiq etilishi, yangicha qarash va yondashuvlarga oid zamonaviy manbalardan foydalana, tarixiy-demografik jarayonlarni tahlil qila olish olish *kompetensiyalariga* ega bo‘lishi lozim.

**Modul bo'yicha soatlar taqsimoti:**

	Modul mavzulari	Tinglovchining o'quv yuklamasi, soat					
		Hammasi	Auditoriya o'quv yuklamasi				Mustaqil ta'lim
			Jami	Jumladan			
				Nazariy	Amaliy mashg'ulot	Ko'chma mashg'ulot	
1.	“O‘zbekiston davlatchiligi tarixi: yangicha qarashlar va zamonaviy yondashuvlar” fanining predmeti, maqsad va vazifalari. Fanning manbashunosligi va tarixshunosligi	2	2	2			
2.	Davlatchilik tushunchasi. Davlatchilikning kelib chiqishi to‘g‘risidagi sivilizatsiyaviy yondashuvlar.	2	2	2			
3.	Davlatlar paydo bo‘lishining ishlab chiqarish usuliga asoslangan “Sharq yo‘li”, mulkchilikka asoslangan “Yevropacha yo‘li”. Davlatning kelib chiqishi to‘g‘risidagi nazariyalar.	2	2	2			
4.	Boshqaruv asoslarining shakllanishi va davlatlarning tashkil topishi. O‘zbekistonda qadimgi davlatchilikning turlari va boshqaruv shakli.	2	2	2			
5.	O‘rta asrlarda davlatchilik va boshqaruv masalalari, Amir Temur va temuriylar davrida Movaraunnahr va Xurosonda davlatchilik rivoji.	2	2		2		
6.	So‘nggi o‘rta asrlarda o‘zbek xonliklari: ma‘muriy tuzilishi va davlat boshqaruvi masalalari	2	2		2		
7.	Turkistonda Rossiya imperiyasi mustamlaka boshqaruv tuzumining qaror topishi masalalari.	2	2		2		
8.	O‘zbekiston mustabid sovet davlati tarkibida.	2	2		2		
9.	O‘zbekistonda davlat boshqaruvining yangi, zamonaviy va samarali tizimining shakllanishi va rivojlanib borishi.	2	2		2		
10.	Davlat xokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish jarayonida Prezidentlik instituti o‘rni va roli	2	2		2		
	<b>Jami:</b>	<b>20</b>	<b>20</b>	<b>8</b>	<b>12</b>		

## NAZARIY MASHG‘ULOTLAR MAZMUNI

**1-mavzu: “O‘zbekiston davlatchiligi tarixi: yangicha qarashlar va zamonaviy yondashuvlar” fanining predmeti, maqsad va vazifalari. Fanning manbashunosligi va tarixshunosligi (2 soat)**

### **Reja:**

1. Fanining predmeti, maqsad va vazifalari.
2. Fanning manbashunosligi va tarixshunosligi

**“O‘zbekiston davlatchiligi tarixi: yangicha qarashlar va zamonaviy yondashuvlar”** fanining nazariy-konseptual asosi O‘zbekiston Respublikasining Prezidentining asarlari ekanligi ko‘plab manbalar va misollar asosida tushuntiriladi. Nazariy konseptual asosning natijalari tushuntiriladi.

**2-mavzu: Davlatchilik tushunchasi. Davlatchilikning kelib chiqishi to‘g‘risidagi sivilizatsiyaviy yondashuvlar. (2 soat)**

### **Reja:**

1. Davlatchilik tushunchasi.
2. Davlatchilikning kelib chiqishi to‘g‘risidagi sivilizatsiyaviy yondashuvlar.
3. “Avesto” o‘zbek davlatchilik tarixi bo‘yicha tarixiy manba sifatida.
4. Qadimgi Xorazm, So‘g‘diyona, Baqtriya va unda boshqaruv tizimi.

O‘rta Osiyo hududida ilk davlat-tuzumining vujudga kelishi va tashkil topishi. Ishlab chiqarish xo‘jaligiga o‘tish va dehqonchilik taraqqiyoti. Ilk sivilizatsiyaning shakllanishi va uning o‘ziga xos qiyofasi. Davlat tashkil topishi jarayonida boshqaruvning shakllanishi.”Avesto” o‘zbek davlatchilik tarixi bo‘yicha tarixiy manba sifatida. Qadimgi Xorazm, So‘g‘diyona, Baqtriya va unda boshqaruv tizimi. Qadimgi davlatchilikning tashkil topish shart-sharoitlari.O‘rta Osiyo jumladan, O‘zbekiston xududida rivoj topgan ilk davlar-podsholiklar, Ahmoniylarning cheklanmagan podsho hokimiyati (mutloq monarxiya) Satrapliklarda boshqaruv tizimi; Aleksandrning boshqaruv faoliyati; yunon-baktriya davlat boshqaruv tartibi



va davlat tuzimi; Kushon davlati (podsholigida) xo‘jalik boshqaruvi; Qang‘ davlati hududi va tizimi.

**3-mavzu: Davlatlar paydo bo‘lishining ishlab chiqarish usuliga asoslangan “Sharq yo‘li”, mulkchilikka asoslangan “Yevropacha yo‘li”. Davlatning kelib chiqishi to‘g‘risidagi nazariyalar. (2 soat)**

**Reja:**

1. Davlatlar paydo bo‘lishining ishlab chiqarish usuliga asoslangan “Sharq yo‘li”.
2. Davlatlar paydo bo‘lishining mulkchilikka asoslangan “Yevropacha yo‘li”.
3. Davlatning kelib chiqishi to‘g‘risidagi nazariyalar.

Davlatchilik tushunchasi. Davlatchilikning kelib chiqishi to‘g‘risidagi sivilizatsiyaviy yondashuvlar. Davlatlar paydo bo‘lishining ishlab chiqarish usuliga asoslangan “Sharq yo‘li”, mulkchilikka asoslangan “Yevropacha yo‘li”. Davlatning kelib chiqishi to‘g‘risidagi nazariyalar. Qadimgi davlatlarning rivojlanish bosqichlari, ijtimoiy iqtisodiy munosabatlar, boshqaruv tizimidagi funksiyalar; iqtisodiy funksiyalar; ijtimoiy funksiyalar; harbiy-siyosiy funksiyalar; hududiy funksiyalar va ularning faoliyatlari.

**4-mavzu: Boshqaruv asoslarining shakllanishi va davlatlarning tashkil topishi. O‘zbekistonda qadimgi davlatchilikning turlari va boshqaruv shakli.**

**(2 soat)**

**Reja:**

1. Boshqaruv asoslarining shakllanishi va davlatlarning tashkil topishi.
2. O‘zbekistonda qadimgi davlatchilikning turlari va boshqaruv shakli..(Axmoniyalar, Davon va Qang‘, Kushon davlatlari hududi va boshqaruv tizimi).

O‘zbekiston xududida rivoj topgan ilk shahar-davlatlar, Axmoniylarning cheklanmagan podsho hokimiyati (mutloq monarxiya) Satrapliklarda boshqaruv

tizimi; Aleksandr Makedonskiyning boshqaruv faoliyati; yunon-baktriya davlat boshqaruv tartibi va davlat tuzimi; Dovon va Qang‘ davlatlari hududi va boshqaruv tizimi; Kushon davlati (podsholigida) xo‘jalik boshqaruvi.

## **AMALIY MASHG‘ULOTLAR**

### **1-mavzu: O‘rta asrlarda davlatchilik va boshqaruv masalalari.**

#### **Amir Temur va temuriylar davrida**

#### **Movaraunnahr va Xurosonda davlatchilik rivoji. (2 soat)**

#### **Reja:**

1. Ilk o‘rta asrlarda davlatchilik va boshqaruv (V-VIII asr o‘rtalarigacha)
2. Rivojlangan o‘rta asrlar davlatchiligi va boshqaruvi
3. Amir Temur va temuriylar davrida Movaraunnahr va Xurosonda davlatchilik rivoji.

Darsda eftaliylar davlatida ijtimoiy-iqtisodiy tuzum; Turk xoqonligi va uning ma‘muriy tuzilishi, ijtimoiy iqtisodiy tuzumi va davlat boshqaruv tartiblari (Xoqon) el, ulus maxalliy boshqaruvi; tuman xokimliklari, qishloq va shahar jamoalari. Arablarning O‘rta Osiyoni istilo etishi va ularning Movarounnahrda boshqaruvi; ijtimoiy siyosiy jarayonlar. O‘rta Osiyoda islom dinining tarqalishi va etakchi mavqega ega bo‘lishi; mahalliy boshqaruv tartibi. Somoniylar davlati; ijtimoiy-siyosiy jarayonlar; davlat boshqaruv tartibi; huquqiy munosabatlar. Qorohoniylar davlati; ma‘muriy tuzilishi, hududi; davlat boshqaruvi tartiblari; ijtimoiy – siyosiy tuzumi (Xoqon-Qoroxon); huquq-tartiboti. G‘aznaviylar va Saljo‘qiylarning boshqaruv tizimi. Xorazmshoh-anushteginiylar davlatining ma‘muriy tuzilishi, boshqaruv tartiblari; ijtimoiy iqtisodiy hayoti. Amir Temurning siyosiy hokimiyatni qo‘lga olishi va markazlashgan davlat asoslarining yaratilishi. Amir Temur zukko, tajribali va siyosatdon, buyuk davlat arbobi. Davlat boshqaruvidagi islohotlar. Amir Temurning el yurtini o‘z tasarrufi va itoatida tutish uchun tuzgan o‘n ikki “tuzug‘i: davlat boshqaruvida dargoh va devonlar manbalar asosida yoritiladi.

**2-mavzu: So‘nggi o‘rta asrlarda o‘zbek xonliklari: ma‘muriy tuzilishi va davlat boshqaruvi masalalari (2 soat)**

**Reja:**

1. Buxoro xonligi: markaziy va mahalliy boshqaruv tartiblari.
2. Xiva xonligi: hududi, ma‘muriy tuzilishi, markaziy va mahalliy boshqaruv tartiblari.
3. Qo‘qon xonligi: hududi, davlat tizimi, ma‘muriy tuzilishi, markaziy va mahalliy boshqaruv tartiblari.

Buxoro xonligi: markaziy va mahalliy boshqaruv tartiblari. Shayboniylar davlatining ma‘muriy tuzilishi. Abdullaxon II ning siyosat maydoniga chiqishi. Buxoro xonligining viloyat (ulus)lari. Buxoro shahri va unga tegishli tumanlar boshqaruvi. Mang‘itlar sulolasi hukmronligi davrida davlat boshqaruvi va ma‘muriy tizim. Amir – eng oliy hukmdor. Davlat boshqaruvida qushbegi mansabining ahamiyati. Saroy unvonlari va mansablari: harbiy amaldorlar, saroy amaldorlari, diniy unvon va mansablar. Unvonlar va darajalar.

Xiva xonligi: hududi, ma‘muriy tuzilishi, markaziy va mahalliy boshqaruv tartiblari. Saroy amaldorlari, markaziy va mahalliy boshqaruvdagi ijtimoiy tabaqalar, harbiy ma‘muriy amaldorlar, Kengash, inoq, shayxulislom, devonbegi, yasovulboshi diniy unvon va mansablar.

Qo‘qon xonligi: hududi, davlat tizimi, ma‘muriy tuzilishi, markaziy va mahalliy boshqaruv tartiblari. Saroy unvonlari va mansablari: oliy darajali, o‘rta darajali, quyi darajali. Harbiy ma‘muriy mansablar va unvonlar.

**3-mavzu: Turkistonda Rossiya imperiyasi mustamlaka boshqaruv tuzumining qaror topishi masalalari. (2 soat)**

**Reja:**

1. Turkiston o‘lkasida harbiy-mamuriy hokimiyat tizimining yuzaga kelishi..
2. Turkiston general-gubernatorligida xokimiyat tuzumini va uning funksiyalari.
3. Rossiya imperiyasining Turkistondagi milliy siyosatining o‘ziga xos xususiyati.

Turkiston o'lkasida harbiy-mamuriy hokimiyat tizimining yuzaga kelishi. Turkiston o'lkasi ichki boshqaruvini tashkillashtirishda imperiyaga xos ma'muriy an'analar, mutloq harbiy qo'mondonlik va podsho g'aznasi manfaatlaridan kelib chiqib o'tkazilishi. Turkiston general-gubernatorligida xokimiyat tuzumini va uning funksiyalari. Zarafshon okrugi va Amudaryo bo'limlari faoliyati. Mustamlaka boshqaruv tizimining takomillashtirilishi. Rossiya imperiyasining ko'chiruvchilik siyosati. Hokimiyat, politsiya va sud organlari, faoliyat doirasining kengayishi. Rossiya imperiyasining Turkistondagi milliy siyosatining o'ziga xos xususiyati.

#### **4-mavzu: O'zbekiston mustabid sovet davlati tarkibida. (2 soat)**

##### **Reja:**

1. 1917 yil siyosiy jarayonlarida Turkiston. Turkiston Muhtoriyati milliy demokratik davlatchilikning dastlabki tajribasi.
2. Bolsheviklar tuzumiga qarshi kurash. XXSR va BXSRLarning tashkil topishi.
3. O'rta osiyoda milliy-hududiy chegaralanishning o'tkazilishi maqsad va mohiyati. O'zbekiston SSRning tashkil topishi.
4. O'zbekistonda sinfiy mafkuraga asoslangan kommunistik partiyaning mutloq xukmronligining o'rnatilishi.

1917 yil siyosiy jarayonlarida Turkiston. Turkiston Muhtoriyati milliy demokratik davlatchilikning dastlabki tajribasi. Sovetlar andozasi asosida TASSR tashkil topishi. Bolsheviklar tuzumiga qarshi kurash. XXSR va BXSRLarning tashkil topishi. O'rta osiyoda milliy-hududiy chegaralanishning o'tkazilishi maqsad va mohiyati. O'zbekiston SSRning tashkil topishi. O'zbekiston SSRning ijtimoiy-siyosiy rivojlanishi SSSR da boshqaruvning ma'muriy-buyruqbozlik tizimi o'zining barcha salbiy ko'rinishlari bilan qaror topishi va mustahkamlanishi sharoitida sodir bo'lishi. O'zbekistonda sinfiy mafkuraga asoslangan kommunistik partiyaning mutloq xukmronligining o'rnatilishi. O'zbekiston SSR Konstitutsiyasining qabul qilinishi.

**5-mavzu: O‘zbekistonda davlat boshqaruvining yangi, zamonaviy va samarali tizimining shakllanishi va rivojlanib borishi. (2 soat)**

**Reja:**

1. 1991 yil 31 avgust “O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligi asoslari to‘g‘risidagi” Qonunning qabul qilinishi.
2. O‘zbekistonda davlat boshqaruvining yangi, zamonaviy va samarali tizimining shakllanishi va rivojlanib borishi.
3. O‘zbekiston mustaqilligi huquqiy asoslarining yaratilishi. Konstitutsiyaning qabul qilinishi.

1991 yil 31 avgust “O‘zbekiston Respublikasi mustaqilligi asoslari to‘g‘risidagi” Qonunning qabul qilinishi va 1 sentabrni Mustaqillik kuni deb e‘lon qilinishi. O‘zbekistonda davlat boshqaruvining yangi, zamonaviy va samarali tizimining shakllanishi va rivojlanib borishi. O‘zbekiston mustaqilligi huquqiy asoslarining yaratilishi. Konstitutsiyaning qabul qilinishi.

**6-mavzu: Davlat xokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish jarayonida Prezidentlik instituti o‘rni va roli (2 soat)**

**Reja:**

1. O‘zbekistonda huquqiy demokratik va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mamlakatni modernizatsiyalashda amalga oshirilayotgan jarayonlar mohiyati.
2. Milliy davlat tizimining barpo qilinishi va boshqaruvda yangi, samarali usullarning qaror topishi.
3. Davlat xokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish jarayonida Prezidentlik instituti o‘rni va roli.

O‘zbekistonda huquqiy demokratik va fuqarolik jamiyatini barpo etishda mamlakatni modernizatsiyalashda amalga oshirilayotgan jarayonlar mohiyati. Milliy davlat tizimining barpo qilinishi va boshqaruvda yangi, samarali usullarning qaror topishi. Davlat xokimiyati va boshqaruvini demokratlashtirish jarayonida Prezidentlik instituti o‘rni va roli. Mustaqillik yillarida Qoraqalpog‘iston Respublikasi davlatchiligi taraqqiyoti.

## **ADABIYOTLAR RO‘YXATI**

### **I. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining asarlari**

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2-jild. T.: “O‘zbekiston”, 2018. – 507 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Niyati ulug‘ xalqning ishi ham ulug‘, hayoti yorug‘ va kelajagi farovon bo‘ladi. 3-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2019. – 400 b.
5. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2020. – 400 b.
6. Mirziyoev Sh.M. Yangi O‘zbekiston strategiyasi –T.:“O‘zbekiston”,2021.464 b.

### **II. Normativ-huquqiy hujjatlar**

7. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2018.
8. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 23 sentyabrda qabul qilingan “Ta’lim to‘g‘risida”gi O‘RQ-637-sonli Qonuni.
9. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2015 yil 12 iyundagi “Oliy ta’lim muasasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” gi PF-4732-sonli Farmoni.
- 10.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi 4947-sonli Farmoni.
- 11.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 2017 yil 20 apreldagi PQ-2909-sonli Qarori.
- 12.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “2019-2021 yillarda O‘zbekiston Respublikasini innovatsion rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi

2018 yil 21 sentabrdagi PF-5544-sonli Farmoni.

13.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 maydagi “O‘zbekiston Respublikasida korrupsiyaga qarshi kurashish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5729-son Farmoni.

14.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 17 iyundagi “2019-2023 yillarda Mirzo Ulug‘bek nomidagi O‘zbekiston Milliy universitetida talab yuqori bo‘lgan malakali kadrlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish va ilmiy salohiyatini rivojlantiri chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4358-sonli Qarori.

15.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgustdagi “Oliy ta’lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to‘g‘risida”gi PF-5789-sonli Farmoni.

16.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 27 avgustdagi 8 oktabrdagi “O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-sonli Farmoni.

17.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 24 maydagidagi“Qadimiyyozma manbalarni saqlash, tadqiq va targ‘ib qilish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-2995-sonli Qarori.

18.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018 yil 19 dekabrdagi “Moddiy madaniy meros obyektlarini muhofaza qilish sohasidagi faoliyatni tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4068-sonli Qarori.

### **III. Maxsus adabiyotlar**

1. Allison S. (Ed.). History of Europe: Series B: Middle ages. – Oxford: Oxford University Press, 2020. – 1243 p.
2. Allison S. (Ed.). History of Europe: Series S: New Era. – Oxford: Oxford University Press, 2020. – 1243 p.
3. Avery P. The Cambridge History of Iran. – Cambridge: Cambridge University Press, 2020. – 871 p.
4. Bayly S. The Cambridge History of India. – Cambridge: Cambridge University Press, 2020. – 1093 p.

5. Bose S. The New Cambridge History of Asia. – Cambridge: Cambridge University Press, 2 part. 2020. – 2062 p.
6. Brundage A. Going to the Sources: A Guide to Historical Research and Writing. – Oxford: John Wiley & Sons, 2017.
7. Bunch B., Hellemans A. The history of science and technology. – Boston – New York, 2004.
8. Burton A. (Ed.). History of the world from ancient to modern times: Europe.– Cambridge: Harvard University Press, 2019. – 1487 p.
9. Burton A. (Ed.). History of the world from ancient to modern times: North and South America.– Cambridge: Harvard University Press, 2019. – 1084 p.
10. Collins R. The Arab Conquest of Spain, 710–797. – Oxford: Blackwell Publishing, 2018.
11. David Spencer “Gateway”, Students book, Macmillan 2012.
12. English for academics. Cambridge University Press and British Council Russia, 2014. Vook 1,2.
13. Grant E. A Source Book in Medieval Science. – Cambridge: Harvard University Press, 2016. – 587 p. (Reprint).
14. H.Q. Mitchell, Marileni Malkogianni “PIONEER”, B1, B2, MM Publications. 2015. 191.
15. Haskins C. H. Studies in the History of Mediaeval Science. – New York: Frederick Ungar Publishing, 2019. (Reprint).
16. Haskins C. H. The Renaissance of the Twelfth Century.– Cambridge: Harvard University Press, 2018. (Reprint).
17. Huntington S.P. The Clash of Civilizations and the Remaking of World Order. – New York: Simon and Schuster, 2017. – 358 p.
18. Mahmudov O. The beginning of the European renaissance // International Journal of Research and Development. 2020. – Vol. 5 (7). Pp. 104-108. DOI: <https://doi.org/10.36713/epra4787>



19. Makhmudov O.V. The Toledo School – early center of investigation of the works Central Asian scholars in the Europe. – Saarbrücken: Lambert Academic Publishing, 2017.– p. 193.
20. Natalie Denmeade. Gamification with Moodle. Packt Publishing - ebooks Account 2015. - 134 pp.
21. Roberts J.M., Westad O.A. The History of the World. – Oxford: Oxford University Press, 2020. – 1260 p.
22. Sarton G. Introduction to the History of Science. – Vol. 1. From Homer to Omar Khayyam. – Oxford: John Wiley & Sons, 2019. (Reprint).
23. Sarton G. Introduction to the History of Science. – Vol. 2. From Rabbi ben Ezra to Roger Bacon, Parts I-II. – Baltimore: Carnegie Institution of Washington, 2020. (Reprint).
24. Starr F. Lost Enlightenment: Central Asia's Golden Age from the Arab Conquest to Tamerlane. – Princeton: Princeton University Press, 2015.
25. Watt W. M. The influence of Islam on medieval Europe. (Islamic Surveys 9). – Edinburgh: Edinburgh University Press, 2020. (Reprint).
26. William Rice. Moodle E-Learning Course Development - Third Edition. Packt Publishing - ebooks Account; 3 editions 2015. - 350 pp.
27. Aydin Arif o'g'li A. Xroniki musulmanskiy gosudarstv I – VII vekov xidjri. – Moskva: Umma, 2018. – 448 s.
28. Alimova D.A. Istoriya kak istoriya, istoriya kak nauka. T. I. Istoriya i istoricheskoye soznaniye. – T.: Uzbekiston, 2008.
29. Belogurov A.Y. Modernizatsiya protsessa podgotovki pedagoga v kontekste innovatsionnogo razvitiya obshestva: Monografiya. — M.: MAKSPress, 2016. — 116 s. ISBN 978-5-317-05412-0.
30. Bolshakov O. G. Istoriya Xalifata. – T. 4. Apogey i padeniye arabskogo Xalifata. – Moskva: Vostochnaya literatura, 2018. – 368 s.
31. Gabrielyan S. I. Istoriya stran Azii i Afriki v novoye vremya. – Tashkent, 2012.

32. Gulobod Qudratulloh qizi, R. Ishmuhamedov, M. Normuhammedova. An'anaviy va noan'anaviy ta'lim. – Samarqand: “Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi” nashriyoti, 2019. 312 b.
33. Yevropa mamlakalari va AQSH 1640–1918 yillarda. /A. Xolliyev tahriri ostida.– Toshkent: Universitet, 2010.
34. Ibraymov A.YE. Masofaviy o'qitishning didaktik tizimi. metodik qo'llanma/tuzuvchi. A.YE. Ibraymov. – Toshkent: “Lesson press”, 2020. 112 bet.
35. Istoriya noveyshego vremeni stran Yevropi i Ameriki v 1945 – 2000 gg. / pod red. YE. Yazikova. – Moskva: Nauka, 2015.
36. Istoriya noveyshego vremeni stran Yevropi i Ameriki v 1945 – 2000 gg. II chast / pod red. N.A. Rodrigues. – Moskva: Nauka, 2014.
37. Istoriya srednix vekov. / pod red. S.P. Karpova. – 1-2 ch. – Moskva: MGU, 2018.
38. Ishmuhamedov R.J., M. Mirsoliyeva. O'quv jarayonida innovatsion ta'lim texnologiyalari. – T.: «Fan va texnologiya», 2014. 60 b.
39. Luchenkova YE., Myadel A. Istoriya nauki i texniki. – M.: Litres, 2017. – 431 s.
40. Matyoqubov X.X. Xorazm vohasi bronza asri va ilk temir davri tarixi. – Toshkent. 2017.
41. Mommzen T. Istoriya Rima. – M.: Litres, 2020. – 591 s.
42. Muslimov N. Ava boshqalar. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. O'quv-metodik qo'llanma. – T.: “Sano-standart”, 2015. – 208 b.
43. Nemirovskiy A., Nikishin V., Ladinin I., Novikov S. Istoriya drevnego mira. Vostok, Gretsiya, Rim. – M.: Litres, 2020. – 786 s.
44. Problemi istorii i mejdissiplinarnogo sinteza. – M.: Litres, 2019. – 561 s.
45. Rtveladze E.V. Istoriya gosudarstvennosti Uzbekistana. – Toshkent: Uzbekistan, 2009.
46. Rusina Y.A. Metodologiya istochnikovedeniya. – Yekaterinburg, 2015.
47. Usmonov B.SH., Habibullayev R.A. Oliy o'quv yurtlarida o'quv jarayonini kredit-modul tizimida tashkil qilish.–T.: “TKTI” nashriyoti, 2019.
48. Xannikov A. Texnika: ot drevnosti do nashix dnei. – M.: Litres, 2020. – 384 s.

49.Xoliqulova X. Mustaqillik yillarida O‘zbekistonda imkoniyati cheklangan shaxslarni himoya qilish siyosati. – Toshkent. Mumtoz so‘z, 2017.

50.Sheypak A. Istoriya nauki i texniki. – M.: Litres, 2020. – 513 s.

#### **IV. Интернет сайтлар**

51.O‘zbekistonRespublikasiOliyvao‘rtamaxsusta’limvazirligi: [www.edu.uz](http://www.edu.uz).

52. Bosh ilmiy-metodik markaz: [www.bimm.uz](http://www.bimm.uz)

53.[www. Ziyonet. uz](http://www.Ziyonet.uz)

54.O‘zbekistonRespublikasiPrezidentiningrasmiysayti: [www.gov.uz](http://www.gov.uz)

55.ЎzbekistonRespublikasiOliyvao‘rtamaxsusta’limvazirliginingrasmiysayti:

<http://www.edu.uz/modules/wfchannel>

56. “Xalqso‘zi” gazetasi – [wwwinfo XS. Uz](http://wwwinfo.XS.Uz).

57. “Turkiston” gazetasi – [wwwturkistonsarkor. uz](http://wwwturkistonsarkor.uz).

58. “Ma’rifat” jurnali – [wwwma’rifat – inform](http://wwwma’rifat-inform).

59. “Jamiyatvaboshqaruv” jurnali – [wwwrzultacademyfreenetuz](http://wwwrzultacademyfreenetuz).

60. “Moziydan sado” jurnali – [www moziy dostlink. Net](http://wwwmoziydostlink.Net)

## **II. MODULNI O‘QITISHDA FOYDALANILADIGAN INTREFAOL TA’LIM METODLARI**

### **“Tushunchalar tahlili” metodi.**

• Metodning maqsadi: mazkur metod talabalar yoki qatnashchilarni mavzu buyicha tayanch tushunchalarni o‘zlashtirish darajasini aniqlash, o‘z bilimlarini mustaqil ravishda tekshirish, baholash, shuningdek, yangi mavzu buyicha dastlabki bilimlar darajasini tashhis qilish maqsadida qo‘llaniladi.


- Metodni amalga oshirish tartibi:
- ishtirokchilar mashg‘ulot qoidalari bilan tanishtiriladi;
- o‘quvchilarga mavzuga yoki bobga tegishli bo‘lgan so‘zlar, tushunchalar nomi tushirilgan tarqatmalar beriladi ( individual yoki guruhli tartibda);
- o‘quvchilar mazkur tushunchalar qanday ma’no anglatishi, qachon, qanday holatlarda qo‘llanilishi haqida yozma ma’lumot beradilar;
- belgilangan vaqt yakuniga yetgach o‘qituvchi berilgan tushunchalarning tugri va tuliq izohini uqib eshittiradi yoki slayd orqali namoyish etadi;
- har bir ishtirokchi berilgan tugri javoblar bilan uzining shaxsiy munosabatini taqqoslaydi, farqlarini aniqlaydi va o‘z bilim darajasini tekshirib, baholaydi.

### **“Davra suhbatini” metodi.**

Aylana stol atrofida berilgan muammo yoki savollar yuzasidan ta’lim oluvchilar tomonidan o‘z fikr-mulohazalarini bildirish orqali olib boriladigan o‘qitish metodidir.

“Davra suhbatini” metodi qo‘llanilganda stol-stullarni doira shaklida joylashtirish kerak. Bu har bir ta’lim oluvchining bir-biri bilan “ko‘z aloqasi”ni o‘rnatib turishiga yordam beradi. Davra suhbatining og‘zaki va yozma shakllari mavjuddir. Og‘zaki davra suhbatida ta’lim beruvchi mavzuni boshlab beradi va ta’lim oluvchilardan ushbu savol bo‘yicha o‘z fikr-mulohazalarini bildirishlarini so‘raydi va aylana bo‘ylab har bir ta’lim oluvchi o‘z fikr-mulohazalarini og‘zaki bayon etadilar. So‘zlayotgan ta’lim oluvchini barcha diqqat bilan tinglaydi, agar muhokama qilish lozim bo‘lsa, barcha fikr-mulohazalar tinglanib bo‘lingandan

soʻng muhokama qilinadi. Bu esa taʼlim oluvchilarning mustaqil fikrlashiga va nutq madaniyatining rivojlanishiga yordam beradi.



**Metodning maqsadi:** mazkur metod taʼlim oluvchilarning bilim darajasini baholash, nazorat qilish, oʻzlashtirish koʻrsatkichi va amaliy koʻnikmalarini tekshirishga yoʻnaltirilgan. Mazkur texnika orqali taʼlim oluvchilarning bilish faoliyati turli yoʻnalishlar (test, amaliy koʻnikmalar, muammoli vaziyatlar mashqi, qiyosiy tahlil, simptomlarni aniqlash) boʻyicha tashhis qilinadi va baholanadi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

“Assesment” lardan maʼruza mashgʻulotlarida tinglovchilarning mavjud bilim darajasini oʻrganishda, yangi maʼlumotlarni bayon qilishda, seminar, amaliy mashgʻulotlarda esa mavzu yoki maʼlumotlarni oʻzlashtirish darajasini baholash, shuningdek, oʻz-oʻzini baholash maqsadida individual shaklda foydalanish tavsiya etiladi. Shuningdek, oʻqituvchining ijodiy yondashuvi hamda oʻquv maqsadlaridan kelib chiqib, assesmentga qoʻshimcha topshiriqlarni kiritish mumkin.

**Namuna.** Har bir katakdagi toʻgʻri javob 5 ball yoki 1-5 balgacha baholanishi mumkin.



### Test

... nisbatan mustaqil, mantiqiy yakunga ega bo'lgan, o'quv-metodik ta'minotdan, nazariy va amaliy qismlardan, topshiriq va joriy hamda yakuniy nazorat kabi qismlardan iborat ta'lim dasturning bo'lagidir. Nima haqida gap ketmoqda?

- C. o'quv kursi
- D. o'quv rejasi



### Qiyosiy tahlil

Matematik analiz darsida funksiyaning limiti haqida ma'lumot berilmoqda. Ushbu mavzu boshqa yetakchi xorijiy OTMLlarda qanday o'tiladi?



### Tushuncha tahlili

- O'quv moduli bu...



### Amaliy ko'nikma

«Chiziqli tenglamalar sistemasini yechish usullari» mavzusi bo'yicha ma'ruza darsning texnologik xaritasini tuzing

## Venn Diagrammasi metodi.

Metodning maqsadi: Bu metod grafik tasvir orqali o'qitishni tashkil etish shakli bo'lib, u ikkita o'zaro kesishgan aylana tasviri orqali ifodalanadi. Mazkur metod turli tushunchalar, asoslar, tasavvurlarning analiz va sintezini ikki aspekt orqali ko'rib chiqish, ularning umumiy va farqlovchi jihatlarini aniqlash, taqqoslash imkonini beradi.

Metodni amalga oshirish tartibi:

-ishtirokchilar ikki kishidan iborat juftliklarga birlashtiriladilar va ularga ko'rib chiqilayotgan tushuncha yoki asosning o'ziga xos, farqli jihatlarini (yoki aksi) doiralar ichiga yozib chiqish taklif etiladi;

-navbatdagi bosqichda ishtirokchilar to'rt kishidan iborat kichik guruhlariga

birlashtiriladi va har bir juftlik o'z tahlili bilan guruh a'zolarini tanishtiradilar;

-juftliklarning tahlili eshitilgach, ular birgalashib, ko'rib chiqilayotgan muammo yohud tushunchalarning umumiy jihatlarini (yoki farqli) izlab topadilar, umumlashtiradilar va doirachalarning kesishgan qismiga yozadilar.

### III. NAZARIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

**1-mavzu: “O‘zbekiston davlatchiligi tarixi: yangicha qarashlar va zamonaviy yondashuvlar” fanining predmeti, maqsad va vazifalari. Fanning manbashunosligi va tarixshunosligi (2 soat)**

#### **Reja:**

1. Fanining predmeti, maqsad va vazifalari.
2. Fanning manbashunosligi va tarixshunosligi .

*Tayanch so‘zlar*” predmeti, maqsad va vazifalari, nazariy-konseptual asosi, manbashunoslik, tarixshunoslik,

#### **Fanning predmeti, maqsad va vazifalari.**

O‘zbek xalqi va davlatchiligi tarixi salkam uch ming yillik tarixga ega bo‘lib, umumjaxon tarixining ajralmas qismi bo‘lib kelmoqda, turli nomlar bilan atalishi, sulolalarning almashinuvi va o‘zgarishlari uning butunligini va mohiyatini o‘zgartirmaydi. O‘zbek xalqi O‘zbekistonning maxalliy tub axolisi bo‘lib, ularning tarixi eng qadimgi davrlarga borib taqaladi.

O‘zbekiston xududida yashagan xalqlar jaxon sivilizatsiyaga ulkan hissa qo‘shib kelganlar. Dunyoga ko‘plab buyuk siymolarni yetishtirib bergan zaminimizda davlatchilikning turli bosqichlarini amaliyotdan o‘tkazilishi bugungi kundagi mukammal davlatchilik bosqichiga ko‘tarilishi uchun xizmat qildi.

Davlatchilik masalalari haqida O‘zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta’kidlab o‘tganidek, - “Hozir O‘zbekiston deb ataluvchi hudud, ya’ni bizning vatanimiz nafaqat Sharq, balki umumjaxon sivilizatsiyasi beshiklaridan biri bo‘lganligini butun jahon tan olmoqda. Bu qadimiy va tabarruk tuproqdan allomalar, fozilu fuzalolar, olimu ulamolar, siyosatchilar, sarkardalar yetishib



chiqqan. Diniy va dunyoviy ilmlarning asoslari shu zaminda yaratilgan, sayqal topgan. Eramizgacha va undan keyin qurilgan suv inshootlari, shu kungacha fayzini, mahobatini yo‘qotmagan osori-atiqalarimiz qadim-qadimdan yurtimizda dehqonchilik, hunarmandchilik madaniyati, me‘morchilik va shaharsozlik san‘ati yuksak bo‘lganidan dalolat beradi”.

Shu nuqtai nazardan olganda o‘zbek xalqining kelib chiqishi uning davlatchiligi bilan bevosita bog‘liq va har ikki jarayonning yuz berishi bir-biri bilan chambarchas holda yuz bergan. Ya’ni o‘zbek xalqining shakllanishi uchun mazkur hududga kirib kelgan va ta’sir o‘tkazgan o‘zga xalqlar ishtirokida emas, balki shu zaminda azaldan yashab kelayotgan va o‘z davlatchiligiga asos solgan mahalliy tub aholi asos bo‘lgan. Bu jarayonda ayniqsa, Janubiy O‘zbekiston, Xorazm, Toshkent va Farg‘onaning qadimgi aholisi katta o‘rin tutgan. Bu jarayon aynan shu aholi tomonidan yuqorida aytib o‘tilgan hududlarda o‘zbek davlatchiligining tamal toshini qo‘yganligidan dalolat beradi.

O‘zbekiston hududlaridagi dastlabki davlatlar va davlat uyushmalarining o‘zaro va qo‘shni hududiy siyosiy birlashmalar hamda davlatlar bilan barcha sohadagi aloqalari, ularning tarixiy geografik hududlari va chegaralari haqidagi masalalarning ham bugungi tarix fanida o‘zining mukammal ilmiy xulosalariga ega bo‘lishi, bunda qadimgi va o‘rta asrlarga xos tarixiy va geografik manbalarning o‘rganilishi o‘zbek davlatchiligi tarixi fanining muhim masalalaridan biridir.

O‘zbek davlatchiligi tarixifanining yana bir muhim vazifasi O‘zbekistonda ilk shaxar madaniyatining shakllanishi va eng qadimgi davlatchilikning kelib chiqishida azaliy o‘troq axolining madaniyati hal etuvchi omil bo‘lganligini ko‘rsatib berishdir.

1991 yil avgustdan boshlab Respublika mustaqillikka erishgandan so‘ng Vatan tarixini har tomonlama o‘rganishga kirishdik. Sobiq SSSR davridagi darsliklar qaytadan ko‘rib chiqilishiga erishildi.

Biroq o‘zbek davlatchiligi tarixi muommosini aniq bir maqsadga yo‘naltirilgan holda ta’qiq etish faqat 1999 yildan O‘zbekiston Respublikasi

Vazirlar Mahkamasining 1998 yil 27 iyuldagi “ O‘z.RFA tarix instituti faoliyatini takomillashtirish ” qaroridan so‘ng boshlandi. Bundan oldin (1998 yil 27 iyun) O‘zbekiston Respublikasi birinchi prezidenti I.A. Karimovning bir gurux tarixchi olimlar va ommaviy axborat vositalari vakillari bilan uchrashuvida tarix fani borasida bildirilgan istak va takliflari ilmiy yondashuvga asoslangan o‘zbek xalqi va davlatchiligi tarixi konsensiyasining g‘oyaviy asosini tashkil etadi. 2000 yildan boshlab tarixchi va shu sohaga oid muammolari hamkorligida “O‘zbek davlatchiligi tarixi” deb atalgan so‘ngi bronza (mil. 3-2 ming yilliklar) davridan hozirgi davrgacha bo‘lgan o‘ch ming yillik davrini qamrab oluvchi fundamental tadqiqotlarni yaratishga kirishilgan.

O‘zbek davlatchiligi tarixini yoritishda nazariy asoslarini bilish katta ahamiyatga ega.

Ilmiylik, holislik, tarixiylik metodlari o‘zbek davlatchiligi tarixini yoritishning kaliti hisoblanadi.

Birinchiidan, O‘zbek davlatchiligi tarixini yaxlit konsepsiyasini amalga oshirish uchun bir butun tarixiy jarayonni, nisbatan mustaqil bo‘lgan bo‘laklarga, ya’ni davrlarga bo‘lish va ularni chuqur tahlil qilish lozim. Mustaqillik yillarida to‘plangan tarixiy hujjatlarni ilmiy asosda umumlashtirishdan iborat.

Ikkinchiidan, ilmiylik bilan birga u yoki bu masalalarni voqeliklarni yoritishda holislik muhim ahamiyatga egadir. Bunda har bir tarixiy hodisalarni tahlil qilayotganda xolis, haqqoniy ravishda o‘rganish. Ya’ni O‘zbekiston davlatchiligi tarixidagi voqea hodisalar qanday sodir bo‘lgan bo‘lsa, shundayligicha yoritish ko‘zda tutilgan.

Xolislik talab etadigan qoidalar shundan iboratki, ushbu yo‘nalishda tarixiy-madaniy taraqqiyotni (tarixini turli davrlarida) o‘rganish jarayonida bo‘lib o‘tgan yoki shu taraqqiyot bilan bog‘liq bo‘lgan voqea-hodisalarni hech bir o‘zgarishlarsiz, qanday bo‘lib o‘tgan bo‘lsa o‘sha holatda talqin va tahlil etish, tekshirish va xulosalar chiqarib yaxlit holga keltirish o‘ta muhimdir. Bu borada aniq manbaviy asoslarga tayaniish tarixiy jarayonlarning o‘zaro bog‘liqligini asoslash lozim.

Uchinchidan, O‘zbek davlatchilik tarixini o‘rganishning metodologik asoslaridan yana biri bu voqea hodisalarni dialektik tarzda o‘rganishdir.

Dialektika, olamning yaxlit, unda sodir bo‘ladigan xodisalar, voqealar umumiy va o‘zaro bog‘lanishda uzluksiz harakatda, ziddiyatli taraqqiyotda bo‘ladi deb ta’lim beradi. Bu metod davlatchilik tarixini o‘rganishda uni to‘laligicha, voqea hodisalarni bir-biri bilan bog‘liqlikda, ayrim tarixiy voqealarni bir butunlikda o‘rganishni taqozo qiladi.

Voqea va hodisalarning turixini o‘rganishda jahon xalqlari tarixini bilan bog‘liqligini nazarda tutadi. Chunki, eng qadimgi davrlardan boshlab yaqin o‘tmishga qadar O‘rta Osiyo, Sharqiy Turkiston, Yettisuv, eron, Afg‘oniston, Shimoliy Hindiston kabi hududlar o‘rtasida yagona iqtisodiy va madaniy makon mavjud edi.

To‘rtinchidan, O‘zbek davlatsilik tarixini o‘rganishda tarixiylik metodi ham alohida o‘rin egallaydi. Bu metod davlatchilik tarixida sodir bo‘lgan voqea hodisalarni o‘rganishda ketma-ketlikni talab qiladi. Bir voqea –hodisa bilan boshqasini sabab oqibatli bog‘lanishi ham ko‘rsatiladi. Bu metod voqea hodisalarni qay tarzda sodir bo‘lganini jamiyat rivojlanishida ayrim shaxslar va ularni roli to‘g‘risida to‘g‘ri haqqoniy fikr yuritishga o‘rgatadi. Xalqni o‘tmishiga, hozirgi zamon va kelajagiga yagona tarixiy jarayon sifatida qarashni talab etadi.

O‘zbek xalqi va uning davlatchiligi tarixi konsepsiyasi asosida o‘zbek davlatchiligi jarayonini bosqichlarga bo‘lish va ularni ilmiy jihatdan tahlil qilish, keyingi yillarda chop etilayotgan ilmiy asarlar, tadqiqotlar, davlatchilik masalalariga bag‘ishlangan ilmiy-nazariy konferensiyalar materiallarini o‘rganish va ularni yagona tizimga solgan holda davlatchilik jarayoni tarixini obyektiv o‘rganish va tarixiylik hamda haqqoniylik tamoyillariga amal qilgan holda ilmiylik nuqtai-nazaridan xulosalar chiqarish talab etiladi. Ayniqsa, xolislik tamoyili ilmiy xulosalar chiqarishda muhim omil sanalgani bois, aniq manbaviy ma’lumotlarga tayanib, tarixiy jarayonlarning o‘zaro chambarchas bog‘liqligini asoslash, tarixiy jarayonlarni o‘zaro solishtirish va taqqoslash, qiyosiy tahlil ijobiy natijalarga

erishishda muhim o‘rin tutadi. Biror bir davr yoki shu davrdagi davlatchilik an‘analari haqida so‘z yuritilar ekan, ana shu davr va davlatchilik masalalarida mavjud holatlarga xos xususiyatlardan kelib chiqqan holda voqelikni anglash va uni tahlil qila bilish, ko‘rilayotgan voqealar yoki jarayonlar haqida to‘g‘ri xulosalar chiqarishga katta yordam beradi.

Tarixiylik uslubi xalqning o‘tmishiga, hozirgi zamonning kelajagiga yagona tarixiy jarayon sifatida, hozirgi zamon kelajakni yaratadi, degan taraqqiyot qonuni asosida qarashni talab qiladi. Sodir bo‘lgan madaniy-tarixiy jarayonlarni, ajdodlarimiz qoldirgan ulkan merosni qanchalik chuqur va har tomonlama o‘rganib, uni chuqur anglansa kelajakni shunchalik yorqin tasavvur qilish mumkin.

Tarixiylik va ilmiylikning muhim omillaridan yana biri shundaki, o‘zbek davlatchiligi tarixi, o‘zbek xalqining etnogenezi jarayonlari jahon mamlakatlari davlatchiligi amaliyoti va etnik jarayonlari bilan uzviy ravishda ro‘y bergan va uning ajralmas bir bo‘lagi sifatida taraqqiyotga erishgan. Shunday ekan, o‘zbek davlatchiligi tarixi taraqqiyotini ham jahon taraqqiyoti tarixi bilan bog‘liq holda o‘rganish zaruriy talablardan biridir. Mavjud ma‘lumotlarga asosan o‘zbek xalqi tarixida davlat tizimiga o‘tish bosqichlari, xususan O‘zbekiston xududlarida ilk davlatlarning shakllanish va rivojlanish jarayoni bosqichlaridan kelib chiqqan holda ilk o‘rta asrlar davlatchiligi xususiyatlarini quyidagilar bilan belgilash mumkin:


1. Bu bosqichni umumiy xususiyatlariga ko‘ra IX asr o‘rtalari – XIII asr birinchi choragigacha deb belgilash mumkin.
2. Bu davrda O‘rta Osiyoda rivojlangan yerga egalik munosabatlariga asoslangan davlatlar qaror topdi.
3. Somoniylar davlati O‘rta Osiyodagi dastlabki markazlashgan davlat sifatida siyosiy boshqaruvdagi mavjud ana‘nalarni takomillashtirdi va murakkab tuzilmaga ega davlat boshqaruvini shakllantirdi.
4. Qoraxoniylar va Xorazmshoxlar davlatlari qaror topdi va markazi xozirgi O‘zbekiston xududlarida bo‘lgan yirik saltanatlar (imperiyalar) darajasiga ko‘tarildi.

5. Markaziy va mahalliy boshqaruv takomillashib bordi.
6. O'g'uzlar va qoraxoniylar ta'sirida o'zbek xalqi shakllanishi va etnogenezi bosqichlari davom etdi.

7. **Siyosiy jihatdan** bu davr O'rta Osiyodagi dastlabki markazlashgan davlat sifatida siyosiy boshqaruvdagi mavjud ana'nalarning takomillashtirishi va murakkab tuzilmaga ega davlat boshqaruvining shakllanishi, yirik saltanatlar (imperiya) darajasiga ko'tarilgan turkiy davlatlarning qaror topishi va boshqaruv shakllari hamda markazlashish jarayonlarining takomillashib borishi bilan xususiyatlanadi.

8. **Iqtisodiy jihatdan** yerga egalik munosabatlarining kengayishi va murakkablik kasb etishi, soliqlarning bir tizimiga solinishi, xalqaro savdoda muomala darajasiga ko'tarilgan pullarning zarb qilinishi, sug'orish tarmoqlarining ko'payishi, Buyuk Ipak yo'li faoliyatining kengayishi va xalqaro savdoning taraqqiy etishi, iqtisodiy markazlarga darajasiga yetgan shaharlarning ko'payishi bilan xususiyatlanadi.

### O'zbek davlatchiligi tarixini o'rganishda fanlararo aloqadorlik



## 2. Fanning manbashunosligi va tarixshunosligi

Davlatchilik tarixining o'ziga xos xususiyati, insoniyat tarixida eng uzoq; davom etinshga qaramay, u yozma manbalar orqali yoritilganligidir. O'rta Osiyo tarixiga tegishli ilk yozma manbalar mil.av. 1mingyillikning birinchi yarmiga oiddir. Shuninguchun, qadimgi davr tarixining asosiy xususiyatlarini arxeologiya ochib

beradi. Qadimgi davr tarixiga oid manbalar nihoyatda turli-tumandir. Odamzotning uzoq oʻtmishidan darak beruvchi asosiy maʼlumotlar — moddiy (ashyoviy) manbalar boʻlib, ularning barchasini odamlar yaratgan va ular inson hayoti va mehnat faoliyatida muhim oʻrin topgan. Moddiy manbalarning koʻpi yer ostida arxeologik yodgorliklar-ning madaniy qatlamlarida saqlanadi va ular arxeologik qazuv ishlari orkali topib tekshiriladi. Zamonaviy arxeologiya fani hozirda juda rivojlanib bormokda. Oʻlkamizda arxeologik qidiruv ishlari katga hajmda olib borilib, u kishilik jamiyatining uzoq oʻtmish tarixini chuqur oʻrganish borasida ulkan imkoniyatlar ochib bermoqda.

Arxeologiya — kishilik uzoq oʻtmishini oʻrganuvchi fan boʻlib, turli tarixiy jarayonlarni oʻrganish va tiklashni oʻz oldiga maqsad qilib qoʻygan. Tarixiy jarayonlar ijgimoiy, iqtisodiy, madaniy va siyosiy voqealardan iboratdir. Ammo, arxeologiya fani faqat ibtidoiy davrnigina emas, balki eng qadimgi davlatlar vujudga kelib rivojlangan davrlar, Oʻrta asrlar madaniyati va tarixini ham oʻrganuvchi fandır. Moddiy ashvoviy manbalarga tosh, suyak, metall dan ishlangan mehnat hamda jang kurollari, qulda va charxda yasalgan sopol idishlar, kulolchilik buyumlari - urchuq boshi, sopol chiroq hamda qadimiy zeb-ziynatlar, sanʼat buyumlari, tanga pullar va boshqa topilmalar kiradi. Ular tarixning turli davrlariga oid moddiy madaniyat buyumlaridir. Qadimgi gʻor-makonlar va turar joylardagi madaniy qatlamlardan, shuningdek qadimgi qabrlardan arxeologlar turli-tuman

Mehnat qurollari, sopol va metaldan yasalgan buyumlarni topadilar. Ularning barchasi qadimgi xoʻjalikning rivojlanish darajasi, hunarmandchilik va moddiy madaniyat haqida xulosalar chiqarish imkonini yaratadi.

Moddiy madaniyat manbalari yozma manbalarga nisbatan ancha qadimiyroqdir. Eng qadimgi tarixiy voqealar koʻpincha yozma maʼlumotlar boʻlmagan davrlarga mansubdir. Qoʻshnichilik jamiyati tarixidagi oxirgi 5000-3000 yil qismini yozma manbalar bilan birga moddiy manbalar orqal oʻrganish mumkin, ammo tarixning ulkan qismini faqat moddiy arxeologik topilmalar orqaligina tiklash mumkin.

Moddiy madaniyatniing rivojlanishi ijgimoiy, iqtisodiy va madaniy jarayonlar bilan bogʻlik, boʻlib, turli geografik oʻlkalarda oʻziga xos xususiyatlari bilan ajralib

turgan. Eng qadimgi jamiyat tarixinirganishda arxeologiya fanini boshqa fanlarsiz tasavvur qilib bulmaydi. Arxeologiya bilan bevosita boshlangan fanlar - birlamchi davr geologiyasi, antropologiya va etnografiyadir. Etnografiya - turli xalqlarning kelib chiqishi va shakllanishi, madaniy-tarixiy munosabatlari, urf-odatlar, turmush tarzi, mashgʻuloti, moddiy va maʼnaviy madaniyatini oʻrganadi. Kitobxonlar eʼtiborini shunga jalb qilmok; kerakki, ilmiy adabiyotlar va oʻquv qoʻllanmalarda turli xil maxsus tushunchalar keng qoʻllaniladi. Jumladan: «moddiy manbalar», «moddiy madaniyat», «tabiiy manbalar», «madaniy qatlam», «arxeologik yodgorliklar» va boshqalar. Tashqi koʻrinishida «manba» va «yodgorlik» soʻzlari bir umumiy maʼnoni bildiruvchi soʻzlarga oʻhshaydi. Ammo, «moddiy manba», birinchi navbatda, inson tomonidan yaratilgan buyumlar va narsalarni tushuntiradi (qurollar, sopol idishlar, zeb-ziynatlar, yarogʻ-aslahalar va hakazo).

Eng qadimgi yozma manbalardan biri “Avesto” boʻlib, qadimgi chorvadorlar va ziroatchilar jamiyati haqidagi maʼlumotlar, siyosiy jarayonlar va gʻoyalar, qabilalar oʻrtasidagi kurash va tinimsiz bosqinlar, tashqi bosqinlardan himoyalaniish zaruriyati, kuchli xokimiyat gʻoyasi, markazlashgan davlat va boshqaruv, kuchli siyosiy birlashmani yaratishga daʼvat, qadimgi fors yozuvlarining maʼlumotlari keltirib oʻtiladi.

Yunon tarixchilari Gekatey, Gerodot, Ktesiy asarlarida xabarlar aks ettirilgan adabiyotlarda Oʻrta Osiyoda davlatchilikning kelib chiqishi sabablari va omillari yoritilgan. Oʻrta Osiyo hududidagi ilk davlat tuzulmalari toʻgʻrisidagi qadimiy yozma tariximizning eng noyob manbasi hisoblangan “Avesto” kitobi qadimshunos olimlarning oʻlkamizning turli hududlariga olib borilgan qidiruv ishlari, ularning muhim natijalari, muhim manba hisoblanadi. Shuningdek, Qadimgi Yunon, Rim va eron manbalari asosida aniq fikrlarni keltirsa boʻladi. Ulardan Geradod, Polibiy, Ktesiy, Strabon, Arrian kabilarni asarlari, forsiy mixxat yozuvlari.

Fanning manbashunosligi haqida fikr-mulohaza yuritilar ekan, davlatchilik tarixi uzoq oʻtmishiga borib taqalishi, ular tarixiga oid maʼlumotlar, qadimgi afsona, rivoyat va doston, diniy-mistik asarlarga oid manbalarda aks etganligi shuningdek, zardoʻshtlarning muqaddas kitobi “Avesto”, xalq dostonlari “Alpomish” va

“Go‘ro‘g‘li”, qirg‘iz xalq eposi “Manas”, tojik xalq dostoni “Pahlavon Rustam” kabilardagi qimmatli ma‘lumotlar mavjudligi bayon qilingan.

O‘rta asr mualliflaridan Kaykovusning “Qobusnoma”, Firdavsiyning “Shohnoma”, Mahmud Qoshg‘ariyning “Devonu lug‘otit turk”, Abu Rayhon Beruniyning “Qadimgi xalqlardan qolgan yodgorliklar”, “Hindiston”, Umar Hayyomning “Navro‘znoma”, “Alisher Navoiyning “Xamsa”, Zahiriddin Muhammad Boburning “Boburnoma” asarlari muhim manba bo‘lib xizmat qildi.

Birgina Buxoro amirligida yashab ijod etgan mutafakkirlar orasida o‘zining siyosiy-huquqiy qarashlari, bilimlari bilan o‘z zamonasining ilg‘or kishilaridan sanalgan Muhammad Vafo Karminagiy («Tuhfayi xoniy»), Mirza Salimbek («Tarixi Salimiy»), Muhammad Sharif («Toj ut-tavorix»), Muhammad Mir Olim Buxoriy («Fathnomai sultoni»), Mirzo Abdulazim Somiy («Mang‘it xonlari tarixi»), Muhammad Naqiy («Toj ut-tavorix»), Sayyid Muhammad Nosir Buxoriy («Tuhfat az-zoirin»), Mulla Ibodulla va Mulla Muhammad Sharif («Tarixi amiri Haydar»), Muhammad Yoqub («Gulshan ul-muluk»), Sadriddin Ayniy («Tarixi inqilobi Buxoro»), Ochildi Murod Miriy («Maxazin at-takva»), Mirzo Sodiq Munshiy («Tarixi manzum»), Mirzo Siroj («Tuhfai ahli Buxoro»), Ahmad Donish («Tarjimai ahvoli amironi Buxoro»), Mulla Ikrom («Ifoz al noimin va e‘lom al-johilin»), Mahmudxo‘ja Behbudiy, Abdurauf Fitrat, Fayzulla Xo‘jayev kabi ma‘rifatparvarlarning davlat boshlig‘i, davlatni boshqarish, hokimiyat masalasida ham o‘zlarining ilg‘or siyosiy-huquqiy qarashlari biz uchun muhim manbalar hisoblangan. Shu bilan birga, yuqorida nomi keltirilgan ko‘pchilik mutafakkirlarning ilmiy merosi sobiq sho‘ro tuzumi davrida asossiz ravishda unutilgan va deyarli o‘rganilmagan. Holbuki, mazkur mutafakkirlar o‘z davrida xalqimizning siyosiy va huquqiy tafakkurini boyitishga beqiyos hissa qo‘shganlar. Yabg‘u yoki Jabg‘u deb davlat hujmroniga aytilgan

Manbalarning ikkinchi guruhiga “Turkiston to‘plami”ning ko‘plab sonlarida davlat boshqaruvining o‘ziga xos jihatlari haqida fikrlar bildiriladi.

Fanning tarixshunosligini to‘rt guruhga bo‘lib o‘rganish asosida ya‘ni dalatchilik tarixini aks etishi dastlab XIX asr oxiri-XX asr boshlarida yozilgan



maqolalar va tarixiy asarlarda ko‘plab uchraydi.

2. Sovet davrida xalq o‘yinlari haqida yozilgan tadqiqotlar doirasi kengligi, jiddiy ilmiy tadqiqotlar. Sovet xokimiyati davrida yozilgan asarlar mafkuraviy cheklanganligi, shunga qaramay, ularda davlatchilik tarixiga oid tegishli ma’lumotlar keltirilganligi e’tiborga loyiq.

3. Istiqlol yillarida mavzuning tadqiqot doirasi kengayib, bir qator ilmiy tadqiqotlar qilindi. Ayniqsa Rtveladze E.V., Saidov A.X., Abdullayev YE., Sagdullayev A., Mavlonov U., Eshov B, Abdullayev U. lar tomonidan yaratilgan ilmiy ishlari, darslik, o‘quv qo‘llanmalarini ham misol qilish mumkin. Shuningdek, arxeolog Y. G‘ulomov, S. Tolstov, V. Masson, A. Asqarov, A. Sagdullayev va boshqalarning ilmiy tadqiqotlari alohida ahamiyatga molikdir.

### **Nazorat uchun savollar**

1. O‘zbek davlatchiligi tarixi fanining predmeti va dolzarb muammolari haqida ma’lumotlar bering.
2. O‘zbek davlatchiligi tarixi fanining maqsadi va vazifalari haqida ma’lumotlar bering.
3. O‘zbek davlatchiligi tarixi fanining nazariy-metodologik asoslari haqida misollar keltiring.
4. Davlatchilik tarixi o‘rganishdagi muhim manbalar qaysilar?
5. O‘zbek davlatchiligi tarixshunosligi haqida gapirib bering?

### **Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 592 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2020. – 400 b.
4. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2018.

5. Alimova D.A. Istoriya kak istoriya, istoriya kak nauka. T. I. Istoriya i istoricheskoye soznaniye. – T.: Uzbekiston, 2008.
6. Rtveladze E.V. Istoriya gosudarstvennosti Uzbekistana. – Toshkent: Uzbekistan, 2009.
7. Rusina Y.A. Metodologiya istochnikovedeniya. – Yekaterinburg, 2015.

#### **IV. Internet saytlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rtamaksusta‘lim vazirligi: [www.edu.uz](http://www.edu.uz).
2. Bosh ilmiy-metodik markaz: [www.bimm.uz](http://www.bimm.uz) www. Ziyonet. Uz

### **2-mavzu: Davlatchilik tushunchasi. Davlatchilikning kelib chiqishi to‘g‘risidagi sivilizatsiyaviy yondashuvlar. (2 soat)**

#### **Reja:**

1. Davlatchilik tushunchasi.
2. Davlatchilikning kelib chiqishi to‘g‘risidagi sivilizatsiyaviy yondashuvlar.
3. “Avesto” o‘zbek davlatchilik tarixi bo‘yicha tarixiy manba sifatida.

**Tayanch suzlar:** Ilk davlat-tuzumi, Ishlab chiqarish xo‘jaligiga, sivilizatsiya, boshqaruvning shakllanishi, ”Avesto”, Qadimgi Xorazm, So‘g‘diyona, Baqtriya, Ahmoniylar, cheklanmagan podsho hokimiyati, mutloq monarxiya, Satrapliklar, Aleksandrning boshqaruv faoliyati, yunon-baktriya davlati, Kushon davlati, Qang‘ davlati.

#### **1. Davlatchilik tushunchasi.**

Davlat tushunchasining nima ekanligini va uning mohiyatini tushunib yetish uchun avvalambor jamiyat, fuqarolik jamiyati tushunchalarini bilib olish kerak bo‘ladi.

Demak, jamiyat nima?

Bu kishilar majmuasi bo‘lib, ular muayyan ehtiyoj va muayyan manfaatlariga ko‘ra birlashishi natijasida vujudga keluvchi ijtimoiy munosabatlar mahsulidir. «Jamiyat insonsiz bo‘lishi mumkin emas. Insoniyat jamiyatning tuzilishida va uning rivojida asosiy rol ni o‘ynaydi. Jamiyat insonlarning bir-birlari bilan jamoa bo‘lib yashashga tabiiy ehtiyojlari asosida paydo bo‘lgan»\ Jamiyat birlashishga moyil bo‘lgan guruhlar, sinflar, qatlamlardan iborat. Oila, urug‘, qabila va millat kabi davlat jamiyatning eng muhim tarkibiy elementidir. U jamiyatda asosan, siyosiy funksiyalarni bajaradi. Jamiyat va davlat tushunchalari falsafiy kategoriya bo‘lib, ular aslo bir narsa emas. «Jamiyat» tushunchasi «davlat» tushunchasiga qaraganda kengroqdir.

- Jamiyatning yana bir ko‘rinishi mavjud bo‘lib, biz uni fuqarolik jamiyati deb ataymiz. Fuqarolik jamiyati yuksak darajadagi huquqiy madaniyatga ega bo‘lgan fuqarolardan iborat bo‘lgan jamiyatdir. Fuqarolik jamiyati nafaqat davlatning kuchi bilan, balki uning a‘zolari bo‘lmish fuqarolarning o‘zlari orqali saqlab turiladigan va qat’iy tartib qaror topgan jamiyatdir. Fuqarolik jamiyatiga davlatning kuchli ta’siri talab etilmaydi. Davlat bunday jamiyatning nazoratida bo‘lishi kerak, chunki davlat — fuqarolik jamiyatining «yollanma xizmatkori».

- «Jamiyat» — nisbatan keng tushuncha. Davlat uning ichida mavjud bo‘ladi. Davlat huquqni keltirib chiqaradi, ammo huquq ham davlatni shakllantiradi va yo‘naltiradi. Jamiyat davlat va huquq ta’sirida u yoki bu tomonga o‘zgaradi. Huquq hamma uchun majburiy bo‘lib, davlat uchun ham, jamiyat a‘zolari uchun ham muhimdir.

- Davlatdagi ijtimoiy-siyosiy munosabatlar qanchalik mukammal boisa, jamiyat va davlatning funksiyalari (vazifalari) shunchalik aniq ajralib turadi. Fuqarolik jamiyati va huquqiy davlat uyg‘un munosabatga ega.

- Jamiyat o‘zining ijtimoiy va iqtisodiy hayotiga oid ko‘plab muammolarni davlatning yordamisiz (va aralashuvisiz) hal qiladi.

- Huquqiy davlat jamiyatning o‘zi eplaydigan masalalarda fuqarolik jamiyati (va uning ayrim a‘zolari)ga vasiylik qilishi shart emas.

- Fuqarolik jamiyati o'zini-o'zi boshqaradi va huquqiy davlat siyosatiga, undagi huquqiy tizimga hal qiluvchi ta'sir o'tkaza oladi.

- «Demokratik jamiyat — bu. Eng avvalo, fuqarolik jamiyatidir. Chinakam demokratiyaning oliy mazmuni — shaxslararo, millat-lararo, davlat va ijtimoiy-siyosiy mimosabatlarni uyg'unlashtirishdan iborat. Bunda inson va jamiyat, jamiyat va davlat hokimiyati tinch-totuv yashaydi»

Davlatning belgilari.

- davlat o'z davlat chegaralari doirasida fuqarolik belgisi bo'yicha birlashgan butun jamiyatning, butun aholining yagona vakili sifatida maydonga chiqadi;

- davlat — suveren hokimiyatning yagona sohibidir;

- davlat yuridik kuchga ega bo'lgan va huquq normalarini aks ettirgan qonunlar va ularga asoslanib chiqariladigan hujjatlarni qabul qiladi;

- davlat o'z vazifalari va funksiyalarini bajarish uchun zarur bo'lgan davlat organlari hamda tegishli moddiy vositalar tizimidan iborat murakkab mexanizm (mahkama)dir;

- davlat — qonuniylik va huquq-tartibot posponi boishga maxsus da'vat etilgan huquqni muhofaza qilish (jazolash) organlari (sud, prokuratura, militsiya, politsiya va hk.)ga ega bo'lgan yagona tashkilot;

- faqat davlatgina o'z mudofaasi, suvereniteti, hududiy yaxlitligi va xavfsizligini ta'minlovchi qurolli kuchlar hamda xavfsizlik organlariga ega bo'la oladi.

*Davlatning funksiyalari*

- Davlatning funksiyalari ichki va tashqi funksiyalarga bo'linadi. Davlatning ichki funksiyalari mamlakat ichki hayotini boshqarishga qaratilgan faoliyatining asosiy yo'nalishlaridir.

*Ichki funksiyalariga qiyidagilar kiradi:*

- regulyativ (tartibga solish, boshqarish);

- qo'riqlash (saqlash, muhofaza qilish).

• 1. Regulyativ funsiya davlatning iqtisodiy va ijtimoiy sohadagi oʻrnini belgilaydi:

• I) iqtisodiy:

• - iqtisodiy siyosatni ishlab chiqish va jamiyat iqtisodiy hayotiga taʼsir etish;

• iqtisodiyotning davlat sektorini boshqarish;

• bozor munosabatlarining huquqiy asoslarini oʻrnatish va narx-navo siyosatini belgilash;

• 2) ijtimoiy:

• ijtimoiy boylikni taqsimlash;

• aholining eng kam muhofazalangan qismini (nogironlar, koʻp bolali oilalar, ishsizlar) himoya qilish, pensiya taʼminoti kabilarni tashkil etish;

• sogʻliqni saqlash, madaniyatni rivojlantirish, jamoat transportini tashkil etish, uy-joy qurish va hk.

• 3) siyosiy:

• fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish;

• qonuniylikni va huquqiy tartibotni taʼminlash;

• barqarorlik, millatlararo va fuqarolararo totuvlikni taʼminlash:

• 4) maʼnaviy:

• sanʼatni qoʻllab-quvvatlash;

• milliy madaniyatni rivojlantirish;

• jamiyatning maʼnaviy-axloqiy sogʻlomligi toʻgʻrisida gʻam-xoʻrlik qilish;

• 5) moliyaviy:

-soliq toʻplash;

• bojxona nazorati;

• bevosita moliyaviy nazoratning oʻzi.

• 2. Qo‘riqlash funksiyasi davlatning huquq bilan mustahkam-langani va tartibga solinadigan ijtimoiy munosabatlarni ta‘minlash va himoya qilishga qaratilgan quyidagi faoliyatini taqozo etadi;

- fuqarolar huquq va erkinliklarini muhofaza qilish;

- tabiatni muhofaza qilish;

- barcha shakllardagi mulklarni himoya qilish;

- huquqni muhofaza qilish.

- Tashqi funksiyalar

- Xalqaro hamkorlik: tashqi siyosiy faoliyat; tashqi iqtisodiy faoliyat.

- Mudofaa va milliy xavfsizlikni ta‘minlash.

- Xalqaro hamkorlik har qanday davlat uchun hayotiy zaruratdir. Yer yuzida hozir 200 dan ortiq davlat bor. Ularning har biri meyorida hayot kechirish va o‘zaro hamkorlik qilishga ehtiyoj sezadi.

- Xalqaro hamjamiyat xalqaro huquqning o‘zagini tashkil etuvchi umumiy tirof etgan prinsip va qoidalarning butun boshli majmuasini ishlab chiqqan. Davlatlar va xalqaro tashkilotlar o‘rtasidagi hamkorlik ana shu prinsiplar asosida amalga oshiriladi.

- Suveren davlat bo‘lgan O‘zbekistoniston Respublikasi jahondagi barcha davlatlar bilan faol hamkorlik qilmoqda, ko‘plab xalqaro tashkilotlar, jumladan, eng nufuzli xalqaro tashkilot bo‘lgan Birlashgan Millatlar Tashkilotining a‘zosi.

- Davlatning mamlakat mudofaasi va xavfsizligini ta‘minlash funksiyasini, eng avvalo, mamlakatning Qurolli Kuchlari hamda Milliy xavfsizlik xizmati bajaradi.

- Davlat tuzilishi

- Davlat tuzilishi shakli uning ma‘muriy-hududiy tashkil etilishidir. Davlat tuzilishi bo‘yicha barcha davlatlar quyidagi turlarga bo‘linadi:

- -oddiy (unitar);

- -murakkab (federativ va konfederativ).

- Unitar davlat — bu oddiy, yaxlit davlat. Bunday davlat viloyat, oblast, okrug, voyevodstvo, rayon, tuman deb turlicha nomlanadigan ma‘muriy-hududiy

birliklarga bo‘linadi. Bunday davlatda bitta parlament, bitta hukumat, bitta prezident bo‘ladi. Unitar davlat odatda bir millatli bo‘ladi.

- Unitar davlat belgilari quyidagilardan iborat:
- butun mamlakat miqyosida bir xil bo‘lgan vakillik, ijroiya va sud organlari bo‘ladi;
- bitta konstitutsiya; yagona qonunchilik tizimi;
- yagona fuqarolik;
- yagona pul birligi;
- barcha ma‘muriy-hududiy birliklar uchun umumiy bo‘lgan soliq va kredit siyosati;
- unitar davlatlar tarkibiy qismlari suverenitetga ega emas (ya‘ni tor ma‘nodagi davlatlar emas);
- yagona armiya mavjudligi.

## **2. Davlatchilikning kelib chiqishi to‘g‘risidagi sivilizatsiyaviy yondashuvlar.**

O‘zbek davlatchilik tarixini o‘rganishning metodologik asoslaridan yana biri bu voqea hodisalarni dialektik tarzda o‘rganishdir.

Dialektika, olamning yaxlit, unda sodir bo‘ladigan xodisalar, voqealar umumiy va o‘zaro bog‘lanishda uzluksiz harakatda, ziddiyatli taraqqiyotda bo‘ladi deb ta‘lim beradi. Bu metod davlatchilik tarixini o‘rganishda uni to‘laligicha, voqea hodisalarni bir-biri bilan bog‘liqlikda, ayrim tarixiy voqealarni bir butunlikda o‘rganishni taqozo qiladi.

Voqea va hodisalarning tarixini o‘rganishda jahon xalqlari tarixini bilan bog‘liqligini nazarda tutadi. Chunki, eng qadimgi davrlardan boshlab yaqin o‘tmishga qadar O‘rta Osiyo, Sharqiy Turkiston, Yettisuv, eron, Afg‘oniston, Shimoliy Hindiston kabi hududlar o‘rtasida yagona iqtisodiy va madaniy makon mavjud edi.

O‘zbek davlatchilik tarixini o‘rganishda tarixiylik metodi bilan sivilizatsion yondoshuv ham alohida o‘rin egallaydi. Bu metod davlatchilik tarixida sodir bo‘lgan

voqea hodisalarni o'rganishda ketma-ketlikni talab qiladi. Bir voqea –hodisa bilan boshqasini sabab oqibatli bog'lanishi ham ko'rsatiladi. Bu metod voqea hodisalarni qay tarzda sodir bo'lganini jamiyat rivojlanishida ayrim shaxslar va ularni roli to'g'risida to'g'ri haqqoniy fikr yuritishga o'rgatadi. Xalqni o'tmishiga, hozirgi zamon va kelajagiga yagona tarixiy jarayon sifatida qarashni talab etadi.

Darhaqiqat, xar bir xaq o'zi bosib o'tgan haqiqiy tarixini bilmay turib o'zlikni anglash mumkin emas.

O'zlikni anglash tarixni bilishdan boshlanadi. O'zbek xalqining tarixiy o'tmishi ma'naviyati haqida gap ketganda shuni alohida eslab o'tish joizki, O'zbek davlatchiligi qaysi asrda paydo bo'ldi? Qanday tarixiy bosqichlarni bosib o'tdi? xaqli savol o'rta tashlangan edi.

Birinchi prezident I.A. Karimov ushbu muammoni o'rta tashlar ekan, hozirgi davrda yurtimizda kechgan davlatchilik taraqqiyoti, ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy hayoti atroflicha tahlil etilgan ilmiy tadqiqotlarni yaratish lozim degan aniq vazifani qo'ydi.

Zero, davlatchiligimizning ko'p ming yillik taraqqiyot yo'lini o'rganish bugungi kunda eng dolzarb ilmiy-amaliy masalalardan biri bo'lib qolmoqda. Markaziy Osiyo hududlari, jumladan O'zbekiston hududlari dunyoning eng qadimgi odamlar yashagan makonlardan biridir. Bu hududlarda odamlar qachondan boshlab yashay boshlangan degan savolga bir qancha javoblar beriladi. Ba'zilar dastlabki odamlarning izlari bundan 500 ming yil ilgari topilgan deyishsa, boshqalar 800 ming yil ilgari yashagan deyilar. Farg'ona vodiysida Selung'ur g'oridan paleolit davriga oid odam qoldiqlari topilgandan keyin bu hududlarda qadimgi ajdodlarimiz 1 million yildan ham ilgariroq yashaganliklari isbotlandi.

Umuman O'zbekiston hududlari dunyo sivilizatsiya o'choqlaridan biri bo'lganligi shubhasizdir. Markaziy Osiyoning qulay geografik tuzilishi, iqlim sharoitlari bu hududda yashash uchun g'oyat qulay sharoit yaratgan.

O'zbekiston hududlaridan juda ko'plab qadimgi davrga oid arxeologik yodgorliklar topilgan. Bu yodgorliklardan qazib olingan moddiy ashyolar qadimgi



ajdodlarimizning ijtimoiy-iqtisodiy turmushi haqida boy ma'lumotlar beradi. Arxeologik manbalar taxlili xulosasiga ko'ra O'zbekiston hududlaridagi qadimgi ajdodlarimiz asosan daryo buyi manzilgohlarida yashaganlar. Ovchilik, termachilik bilan bir qatorda xunarmandchilik bilan to'la-to'kis vujudga keldi. Daryo bo'ylarida yoki vodiylidagi tekis dehqonchilikka qulay yerlarda dehqonchilik madaniyati rivojlangan. Sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilikka o'tish O'zbekiston hududlarida eramizdan avvalgi 3 ming yilliklarda paydo bo'ldi. Dehqonchilikning rivojlanishi odamlarning o'troq xayot kechirishi jarayonini kuchaytiradi. Bu xol madaniyatning iqtisodiy va ijtimoiy asoslarining tezkorlik bilan rivojlanishiga olib keldi. Endi qadimgi ajdodlarimiz urug' jamoasi asoslari bo'yicha emas, balki ishlab chiqarish manfaatlari asosida guruhlashib yashaganlar. Ma'lum manzilgohlarda patriarxal tizim asosida yuzdan ortiq oilalar birlashganlar va bu oila jamoani boshqarish ular orasidan saylangan oqsoqol ixtiyorida bo'lgan. Eng qadimgi yozma yodgorlik bo'lmish "Avesto"da oqsoqollar kengashi Nmanapati nomi bilan qayd qilingan. Bu katta oila boshlig'i degan ma'noni bildiradi. Oqsoqollar kengashi katta kuchga ega bo'lgan. Ularning qo'lida diniy va dunyoviy hokimiyat birlashgan. Sinfy tabaqalanish jarayoni kuchaygan sari jamiyatni boshqarish og'irlashib borgan.

Eramizdan avvalgi 1-ming yilliklarga kelganda ibtidoiy jamoa tuzumi o'zining oxirgi bosqichini o'tayotgan edi. Temirning kashf qilinishi ibtidoiy jamoa tuzumini buzub yubordi. U dehqonchilik va xunarmandchilikning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatdi, chorvachilik dehqonchilikdan tamoman ajralib chiqdi. Xunarmandchilikning rivojlanishi bois ilk shaharsozlik madaniyati belgilari – bozorlar paydo bo'lib keng ko'lamli mol ayirboshlash kuchaydi. Natijada O'rta Osiyoda ilk shahar davlatlar vujudga keldi. Shahar-davlatlarning vujudga kelishi bilan xunarmandchilik va binokorlik xam taraqqiy eta boshladi. Shahar davlatlarda savdo-sotiq, mol ayirboshlash jaroyonlari tabora boshlanib rivojlanib, kengayib bordi.

### **3. "Avesto" o'zbek davlatchilik tarixi bo'yicha tarixiy**

**manba sifatida.**

O‘zbekiston hududlaridagi bronza va temir davridagi yodgorliklari komplekslarini o‘rganish bu hududda iqtisodiyot va madaniyatning yuksak darajada taraqqiy etganini va bu yerda qadim davrlardanoq sinfiy jamiyat shakllana boshlaganini ko‘rsatadi. Shuni qayd etib o‘tmoq joizki, Markaziy Osiyodagi quldorlik jamiyati ikki daryo oralig‘i va Misrdagi quldorlik singari taraqqiy etmagan. Bu yerda qulchilik uklad sifatida mavjud bo‘lsada, jamoa mavqei katta bo‘lganligidan u taraqqiyotning yuqori chuqqisiga ko‘tarila olmagan. Shu bois, Markaziy Osiyodagi qulchilik “Osiyocha ishlab chiqarish usuli” deb talqin qilingan. Markaziy Osiyoning o‘ziga xos tabiiy, geografik va xo‘jalik iqtisodiy sharoitlari xususan, bu yerda sug‘orma dehqonchilik madaniyatining ustunligi qullar mehnatiga nisbatan dehqonlar mehnatini ustunroq mavqeda bo‘lishini ta‘minladi. Ma‘lumki, mehnat qurollarining takomillashishi natijasida yerga ishlov berish yaxshilanib, ekin maydonlari kengayib, odamlarning mehnati unumliroq bo‘lib qoldi, undan yasalgan mehnat qurollari qishloq xo‘jaligi va hunarmandchiligining tez o‘shishiga olib keldi. Daryolarni to‘sib to‘g‘onlar qurib, kanallar qazib, yerlarga suv chiqarish imkoniyati kengaydi.

O‘rgatilgan ishchi hayvonlari qo‘shilgan temir tishli omochlar bilan yerni haydashning o‘zlashtirilishi, hosildorlikni oshishini, ko‘proq mahsulotlar yetishtirishni ta‘minladi. Bular insonlarni bir muncha yaxshi yashash olib keldi. Urug‘chilik munosabatlar o‘zgarib, ikki urug‘ a‘zolaridan tashkil topgan er-xotin juft oilalar rivojlandi. Bir necha juft oilalar uyushib, katta patrixal oilalar urug‘ jamoasidan ajralib chiqdi, ularga urug‘ jamoalariga qarashli yerlardan chek yerlar ajratib berildi. Shu tariqa urug‘ jamoasining umumiy xo‘jaligi oilalar jamoasiga bo‘lindi. Bunday oilalar jamoasi ishlab chiqarish jamoalari deb ham ataldi. “Avesto”da ta‘kidlanishicha, katta patriarxal oila-“nmana”, yana bir necha “nmana”larning birlashuvi-urug‘ jamoasi-“vis”ni tashkil etgan. Ma‘lum hududdagi qo‘shni “vis”larning birikuvidan hududiy qo‘shnichilik jamoasi-“varzana”, yana bir necha “varzana”lar jamoasining uyushuvidan qabila-“zantu” tashkil topadi. Bir necha qabilalarning birlashuvi natijasida qabilalar ittifoqi-“daxyu” vujudga kelgan. Arxeolog olim A. Asqarov tomonidan topib o‘rganilgan Sherobod cho‘lidagi

Sopollitepada bu holatni aynan kuzatish mumkin. Bu yerda o'troq dehqonchilik xo'jaligi asosida tashkil topgan 8 ta katta oila jamoasining qishlog'i, ularni birlashtirgan omil urug'chilik iplari emas, balki birinchi navbatda ishlab chiqarish bo'lgan. Ana shu 8 ta katta oila tarkibida patriarxal tizimi asosida qurilgan 100 dan ortiq juft oilalar bo'lgan.

Katta oila jamoasini boshqarish ishi ular orasidan saylangan oqsoqol-“nmanapati” qo'lida bo'lgan. Demak, Sopollitepada 8 ta oqsoqol bo'lib, ularni birlashtiruvchi oqsoqollar kengashi bo'lgan.

“Avesto”da aytilganidek, “nmana”-katta oila jamoasi, “nmanapati”-katta oila boshlig'i. Agar shu tizmidan kelib chiqqandigan bo'lsak, Sopollitepa qishlog'i aholisi 8 ta “nmana”dan tashkil topgan. “Vis” –urug' jamoasi “vispati” esa ana shu “nmana”larni birlashtirgan oqsoqollar kengashining boshlig'i, urug' oqsoqoli, katta qishloqlarning boshlig'i. Demak, ishlab chiqarish jamoalarini boshqarish mo'tabar zotlar-oqsoqollar qo'lida bo'lib, ular jamoa hayoti bilan bog'liq bo'lgan barcha ishlarni oqsoqollar kengashi orqali hal qilganlar.

Oqsoqollar kengashi qo'lida diniy va dunyoviy hokimiyat jamlangan bo'lib, u jamoaning kundalik faoliyatidagi xo'jalik masalalarini hal qilgan.

Katta oila jamoasining oqsoqoli bir vaqtning o'zida o'zining oila jamoasi uchun diniy va dunyoviy boshliq, piru ustoz va murabbiy bo'lgan.

Urug'-qishloq oqsoqoli esa oqsoqollar kengashining boshlig'i sifatida butun qishloq ahlini ham boshlig'i hisoblangan. Mo'tabar shaxslarning topshiriq va buyruqlari jamoa a'zolari uchun majburiy bo'lgan.

Ishlab chiqarish jamoalari tarkibini tashkil etgan har bir oila o'z xususiy mulkiga ega bo'lgan. Xususiy mulk kelib chiqishi, jamoalarning ishlab chiqarish qonun qoidalari asosida tashkil topishi o'z navbatida mulkiy tabaqalanishni keltirib chiqardi.

Boylik avvalo jamoa oqsoqollari, harbiy boshliqlar, mo'tabar shaxslar qo'lida to'planib boradi. Ular hosildor yerlarni egallaydilar va ko'plab chorva mollariga ega bo'lib, jamoani boshqarganligi uchun ham katta ulush olganlar. Oqsoqollar o'z iste'mollaridan ortiq qolgan mahsulotlarni, mis, oltin, kumush buyumlarga ayribosh

qilganlar. Qabilalar o'rtasida hosildor va yaylovlar uchun, chorva mollari uchun urushlar kelib chiqqan. Urushda qo'lga tushgan o'ljalarni ko'p qismini yo'l boshilar va oqsoqollarga berilgan va ular jamiyatda katta mulkka ega bo'lib, ularni zadogonlar deb atashgan.

Ishlab chiqarish jamoalarining paydo bo'lishi asta –sekin ortiqcha mahsulotlarni ayriboshlashni hamda ijtimoiy mehnat taqsimotini keltirib chiqardi. Jamoa a'zolaridan ishlab chiqarishning o'zlariga qulay sohalarini talab oldilar. Shu tariqa dehqonchilikdan chorvachilik, keyinroq hunarmandchilik ajralib chiqqan. Ular o'rtasida o'zaro ayriboshlash bozorlarni keltirib chiqardi. Dastlabki shaharlar paydo bo'ldi. Arxeologlar (Afrosiyob) Samarqandning sharqiy qismi, Yerqo'rg'on va Uzurqir (Qashqadaryo vodiysi), Ko'zalaqir (Xorazm), Qiziltepa (Surxondaryo ) va boshqa qadimiy shaharlarni o'rganishgan. Qadimiy shaharlar mudofaa devorlari bilan o'ralgan, ularda saroylar, qal'alar, hunarmandchilik ustaxonalar ,bozorlar bo'lgan. Uni shahar boshliqlari –hokimlar boshqargan. Shu tariqa jamiyatda sinfiy tabaqalanish avj oldi. Kambag'al va boylarga ajralib ketdi. Uzoq davom etgan bu jarayon hozirgi O'zbekiston hududida ham davlatlarni tashkil topishi uchun shart sharoitlarni tayyorladi. O'rta Osiyo hududidagi ilk davlat tuzulmalari to'g'risidagi qadimiy yozma tariximizning eng noyob manbasi hisoblangan "Avesto" kitobi qadimshunos olimlarning o'lkamizning turli hududlariga olib borilgan qidiruv ishlari, ularning muhim natijalari, muhim manba hisoblanadi.

#### **4. Qadimgi Xorazm, So'g'diyona, Baqtriya va unda boshqaruv tizimi.**

O'zbek xalqi davlatchiligi yani jamiyat hayotini boshqarish tamoyillariga asoslangan dastlabki siyosiy tuzulmalar o'troq , sun'iy sug'orish dehqonchilik va chorvachilik zaminida bronza davridayoq Amudaryo va Sirdaryo havzalarida vujudga kela boshlagan. Uning tadrijiy davomida mil. av 1 ming yillik boshlarida aniqrog'i VIII-VII asrlarda Vatanimiz hududlarida "Katta Xorazm", "Baqtriya", "So'g'diyona" nomi bilan mashhur bo'lgan dastlabki davlatlar barpo bo'lgan.

Xorazm davlati egallagan hudud, hozirgi Xorazm yerlari bilan chegaralanib qolmay, balki undan ancha janubiga (Marv, Turkmaniston , Xirot (Afg'oniston

shimoliy) atroflarigacha yoyilgan.

Kushon davlatini Yuechji qabilalari tuzgan. Kushon davlatining birinchi hukmdori Kudzula Kadfiz. Kushon davlati tashkil topayotgan davrda Baqtriya va Kushon davlatining hududlarini Hindiston va Xo‘tandan Janubiy O‘zbekistongacha va Afg‘onistongacha bo‘lgan. So‘g‘diyona aholisi asosan Zardushtiylik dinga sig‘inar edi.

Mil. av so‘ngi ming yillikning boshlariga tegishli Amirobod madaniyati, Quyi Amudaryo havzasida yuzaga kelgan o‘ziga hos sun‘iy sug‘orish inshooti hamda dastlabki shaharozlik timsoli bo‘lgan shahar, qal‘alar –Qal‘alaliqir, Ko‘zaliqir va boshqalar bular Xorazm vohasidan davlat tuzilmalari mavjudligidan dalolat beradi.

Negaki, bu singari umumelatlar, qavm-qabilar manfaatlariga xizmat qiladigan muhim o‘zgarishlar davlat boshqaruvi yo‘li bilangina amalga oshirishi mumkin bo‘ladi. Qadimshunos olim Y. G‘ulomov tomonidan aniqlangan 200 km uzunlikdagi eni bir necha o‘nlab metrdan iborat bo‘lgan kanal o‘zani obod dehqonchilik madaniyati Xorazm davlati qadimdan insoniyatning yirik madaniy maskanlaridan biri sifatida shuhrat topganligidan guvohlik beradi.

Geradod ma‘lumotiga qadimda Oks (Amudaryo) daryosi bo‘ylab 360dan ziyod sun‘iy sug‘orish kanallari suv inshootlari barpo etilib cho‘lli, sahro yerlarga suv chiqarilib dehqonchilik uchun ekin maydonlari kengaytirib borilgan. Geradod Xorazmga meva sabzavotning, g‘allani barcha turlarini yetishtiradigan o‘lka deb qayd etgan. Bu ko‘hna hudud bag‘rida ming yillar davmomida saqlanib kelayotgan ko‘plab asori-atiqalar saqlanib yotganligini eslatib o‘tgan.

Afsuski, Xorazm davlatida hukmronlik qilgan sulolalar to‘g‘risida ma‘lumotlar hozircha aniq emas. Ba‘zi bir tahminlarga qaraganda, Xorazmning siyosiy sulolasi Siyovushonlar sulolasi bo‘lganligini zikr etadilar.

O‘zbek davlatchiligining yana bir asosi – Baqtriya podsholidir. Uning tarkigida Hozirgi Surxondaryo, Tojikiston janubi, Afg‘onistonning shimoliy – sharqiy qismi, So‘g‘diyona va Marg‘iyona yerlari kirgan.

Rim tarixchisi Kursiy Rufning fikricha, “Baqtra daryosi nomidan shahar, viloyatning nomi chiqqan”.

Binobarin, “Baqtriyaliklar“ juda qadim manbalarda tilga olinib, bir necha qabilalarni birlashtirgan tushunchani anglatadi.

Ktesiy ma’lumotiga ko’ra, bu o’lka obi-hayotga mo’l-ko’lligi unumdor yerlari ko’p bo’lganligidan, bu hududda dehqonchilik madaniyati taraqqiyo topgan, aholi bog’dorchilik, mevachilik mahsulotlari yetishtirishda omilkor bo’lgan.

Qashqadaryo vohasining mil. av VIII-VII asrlariga oid Sangirtepa, Uzunqir, Yerqo’rg’on, Zarafshon vodiysida Afrosiyob, Ko’ktepa singari makonlarni o’rganish shuni ko’rsatadiki, bu joylarda o’troq turmush kechirgan qavm, elatlar dehqonchilik bilan faol shug’ullanganlar.

Yunon tarixchisi Ktesiy va Geradodlarning bergan ma’lumotlariga Baqtriya xalqi Misr va Bobil kabi yirik rivojlangan davlatlardan biri bo’lib, bu o’lka bitmas-tugamas boyliklar makoni degan edilar.

Shunday qilib, yuqoridagi keltirilgan fikrlar shundan dalolat beradiki, qadimgi o’zbek davlatchiligi tarixiy tajribasining muhim jihatlari, namunalari sifatida alohida qimmatga egadir.

Tarixiy manbalar shuni ko’rsatdiki, davlatchilik jamiyatining ichida o’z ichki qonuniyatlari ichida asosida paydo bo’ldi, rivojlanadi ya’ni davlat tuzummasi tashqaridan tayyor holda ko’chirilmaydi, ma’lum jamiyat bag’rida tug’iladi. O’zbek davlatchilik taraqqiyoti ham bundan mustasno emas .

O’zbekistonda “Voha davlatchiligi”, “Shahar davlatlar”, Mesopotamiya, Misr, Xitoy, Mezoamerikadagi “noma” davlatchiligi kabi ilk sivilizatsiya belgilari paydo bo’ldi va rivojlandi. Shular asosida mil. av VIII-VII asrlarda Baqtriya podsholigi va “Katta Xorazm” davlatlari shakllandi.

Mil.av. VI asrning boshlarida Parfiya davlati vujudga keladi. Tadqiqotchilarning ma’lumotiga ko’ra, “Qoraqum - Parfiya davlatining beshigidir”.

U mil.av. 247 yilda Arshak boshchiligida Niso (Turkmaniston) shahrini egallab o’zini podsho deb e’lon qiladi.

Mil. av. 235 yil o’z yerlarini kengaytirib, besh asr davomida Hindiston, O’rta Osiyo, Xitoyning g’arb mamlakatlari bilan savdo ishlarida vositachi bo’lgan.

Yunon Baqtriya –salavkiylardan ajralib, alohida davlat bo’lishida Baqtriya

aholisi tomonidan qo‘llanib hokimiyat tepaiga kelgan Diodot boshchilik qilgan. U mil. av. 256-242 va 246-245 yillarni aytadilar. (Yevtidem, Demetriy, Yevkratid kabi hokimlar) Hindistonning shimoliy –g‘arbiy qismi, Amudaryo va Sirdaryo o‘rtasidagi yerlarni ham qo‘shib oldi. Uni gullab yashnagan davri mil. avIII ming yillikning II yarmi va mil. av. II asrning I yarmiga to‘g‘ri keladi. Bu davrga oid Jondavlattepa, Dalvarzin (pastki qatlamlar) , Oyxonim, Qorabog‘tepa, Kampirtepadan topilgan juda boy topilmalar shunday dalolat beradiki, bu hududdagi ijtimoiy-iqtisodiy va madaniy hayotdagi rivojlanish jarayonlaridan dalolat beradi.

Yunon – Baqtriya davlati markazlashgan davlat bo‘lib, hokimiyatni podsho boshqarar edi. Davlat birinchi Viloyatlarga bo‘lingan bo‘lib bu viloyat hokimlari podshoha bo‘ysunar edi.

Bu davlat 250-130 yillarda juda gullab yashnagan bo‘lib, mil. av. II asrining ikkinchi yarmiga kelib, ko‘chmanchilar zarbalari ostida inqirozga uchradi.

### **Nazorat uchun savollar**

1. O‘rta Osiyo hududida ilk davlat-tuzumining qachon vujudga kelishdi va tashkil topishi jarayonini gapirib bering.
2. Ishlab chiqarish xo‘jaligiga o‘tish nima?
3. Yurtimizda dehqonchilik taraqqiyoti qanday kechgan?
4. Ilk sivilizatsiyaning shakllanishi va uning o‘ziga xos qiyofasi haqida nimalarni bilasiz?
5. Davlat tashkil topishi jarayonida boshqaruvning shakllanishini gapirib bering.
6. ”Avesto” o‘zbek davlatchilik tarixi bo‘yicha tarixiy manba sifatida.
7. Qadimgi Xorazm, So‘g‘diyona, Baqtriya va unda boshqaruv tizimi.
8. O‘zbekiston xududida rivoj topgan ilk davlatlar-podsholiklarda Satraplik boshqaruv tizimi.
9. Aleksandrning boshqaruv faoliyati; yunon-baktriya davlat boshqaruv tartibi va davlat tuzimi qanday bo‘lgan?
10. Kushon va Qang‘ davlati boshqaruv tizimi qanday bo‘lgan?

### **Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Karimov I.A. O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li. Toshkent-1992.
2. Karimov I.A. O‘zbekiston: milliy istiqlol, iqtisod, siyosat, mafkura.T., 1996.
3. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 592 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2020. – 400 b.
5. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2018.
6. Alimova D.A. Istoriya kak istoriya, istoriya kak nauka. T. I. Istoriya i istoricheskoye soznaniye. – T.: Uzbekiston, 2008.
7. Rtveladze E.V. Istoriya gosudarstvennosti Uzbekistana. – Toshkent: Uzbekistan, 2009.
8. Murtazayeva R va b. O‘zbekiston tarixi. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. T., 2003, 2005.
9. Usmonov Q va b. O‘zbekiston tarixi. Oliy o‘quv yurtlari uchun darslik. T., Moliya-iqtisod. 2006.
- 10.G‘ulomov S., Usmonov Q., Milliy mustaqillik O‘zbekistonga nima berdi. T., 2000.
- 11.O‘zbekistonning yangi tarixi. III jild. Mustaqil O‘zbekiston tarixi. T., 2000.
- 12.Rusina Y.A. Metodologiya istochnikovedeniya. – Yekaterinburg, 2015.

#### **IV. Интернет сайтлар**

1. O‘zbekistonRespublikasiOliyvao‘rtamaxsusta’limvazirligi: [www.edu.uz](http://www.edu.uz).
  2. Bosh ilmiy-metodik markaz: [www.bimm.uz](http://www.bimm.uz)
- [www. Ziyonet. Uz](http://www.Ziyonet.Uz)

**3-mavzu: Davlatlar paydo bo‘lishining ishlab chiqarish usuliga asoslangan “Sharq yo‘li”, mulkchilikka asoslangan “Yevropacha yo‘li”. Davlatning kelib chiqishi to‘g‘risidagi nazariyalar. (2 soat)**



### **Reja:**

1. Davlatlar paydo bo'lishining ishlab chiqarish usuliga asoslangan "Sharq yo'li".
2. Davlatlar paydo bo'lishining mulkchilikka asoslangan "Yevropacha yo'li".
3. Davlatning kelib chiqishi to'g'risidagi nazariyalar.

**Tayanch so'zlar:** Davlatchilik, sivilizatsiyaviy yondashuvlar, ishlab chiqarish usuli, "Sharq yo'li", mulkchilikka asoslangan, "Yevropacha yo'li", nazariyalar. Qadimgi davlatlar, ijtimoiy, iqtisodiy munosabatlar, boshqaruv funksiyalari, iqtisodiy funksiyalar; ijtimoiy funksiyalar; harbiy-siyosiy funksiyalar; hududiy funksiyalar va ularning faoliyatlari.

### **1. Davlatlar paydo bo'lishining ishlab chiqarish usuliga asoslangan "Sharq yo'li"**

O'zbekiston hududlari dunyo sivilizatsiya o'choqlaridan biri bo'lganligi shubhasizdir. Markaziy Osiyoning qulay geografik tuzilishi, iqlim sharoitlari bu hududda yashash uchun g'oyat qulay sharoit yaratgan. O'zbekiston hududlaridan juda ko'plab qadimgi davrga oid arxeologik yodgorliklar topilgan. Bu yodgorliklardan qazib olingan moddiy ashyolar qadimgi ajdodlarimizning ijtimoiy-iqtisodiy turmushi haqida boy ma'lumotlar beradi. Arxeologik manbalar tahlili xulosasiga ko'ra O'zbekiston hududlaridagi qadimgi ajdodlarimiz asosan daryo buyi manzilgohlarida yashaganlar. Ovchilik, termachilik bilan bir qatorda xunarmandchilik bilan to'la-to'kis vujudga keldi. Daryo bo'ylarida yoki vodiylidagi tekis dehqonchilikka qulay yerlarda dehqonchilik madaniyati rivojlangan.

Sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilikka o'tish O'zbekiston hududlarida eramizdan avvalgi 3 ming yilliklarda paydo bo'ldi. Dehqonchilikning rivojlanishi odamlarning o'troq xayot kechirishi jarayonini kuchaytiradi. Bu xol madaniyatning iqtisodiy va ijtimoiy asoslarining tezkorlik bilan rivojlanishiga olib keldi. Endi

qadimgi ajdodlarimiz urug‘ jamoasi asoslari bo‘yicha emas, balki ishlab chiqarish manfaatlari asosida guruhlashib yashaganlar. Ma’lum manzilgohlarda patriarxal tizim asosida yuzdan ortiq oilalar birlashganlar va bu oila jamoani boshqarish ular orasidan saylangan oqsoqol ixtiyorida bo‘lgan. Oqsoqollar kengashi katta kuchga ega bo‘lgan. Ularning qo‘lida diniy va dunyoviy hokimiyat birlashgan. Sinfy tabaqalanish jarayoni kuchaygan sari jamiyatni boshqarish og‘irlashib borgan. Eradan avvalgi 1-ming yilliklarga kelganda ibtidoiy jamoa tuzumi o‘zining oxirgi bosqichini o‘tayotgan edi. Temirning kashf qilinishi ibtidoiy jamoa tuzumini buzub yubordi. U dehqonchilik va xunarmandchilikning rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatdi, chorvachilik dehqonchilikdan tamoman ajralib chiqdi. Xunarmandchilikning rivojlanishi bois ilk shaharsozlik madaniyati belgilari – bozorlar paydo bo‘lib keng ko‘lamli mol ayirboshlash kuchaydi. Natijada O‘rta Osiyoda ilk shahar davlatlar vujudga keldi. Shahar-davlatlarning vujudga kelishi bilan xunarmandchilik va binokorlik xam taraqqiy eta boshladi. Shahar davlatlarda savdo-sotiq, mol ayirboshlash jaroyonlari tabora boshlanib rivojlanib, kengayib bordi.

Qadimgi shaharlarga xos bo‘lgan umumiy xususiyat-ularning mudofaa devorlari bilan o‘ralishi.

O‘zbekiston hududlaridagi bronza va temir davridagi yodgorliklari komplekslarini o‘rganish bu hududda iqtisodiyot va madaniyatning yuksak darajada taraqqiy etganini va bu yerda qadim davrlardanoq sinfiy jamiyat shakllana boshlaganini ko‘rsatadi. Shuni qayd etib o‘tmoq joizki, Markaziy Osiyodagi quldorlik jamiyati ikki daryo oralig‘i va Misrdagi quldorlik singari taraqqiy etmagan. Bu yerda qulchilik ukklad sifatida mavjud bo‘lsada, jamoa mavqei katta bo‘lganligidan u taraqqiyotning yuqori chuqqisiga ko‘tarila olmagan. Shu bois, Markaziy Osiyodagi qulchilik “Osiyocha ishlab chiqarish usuli” deb talqin qilingan. Markaziy Osiyoning o‘ziga xos tabiiy, geografik va xo‘jalik iqtisodiy sharoitlari xususan, bu yerda sug‘orma dehqonchilik madaniyatining ustunligi qullar mehnatiga nisbatan dehqonlar mehnatini ustunroq mavqeda bo‘lishini ta’minladi.

Ma’lumki, mehnat qurollarining takomillashishi natijasida yerga ishlov berish yaxshilanib, ekin maydonlari kengayib, odamlarning mehnati unumliroq bo‘lib

qoldi, undan yasalgan mehnat qurollari qishloq xo‘jaligi va hunarmandchiligining tez o‘shishiga olib keldi. Daryolarni to‘shib to‘g‘onlar qurib, kanallar qazib, yerlarga suv chiqarish imkoniyati kengaydi. O‘rgatilgan ishchi hayvonlari qo‘shilgan temir tishli omochlar bilan yerni haydashning o‘zlashtirilishi, hosildorlikni oshishini, ko‘proq mahsulotlar yetishtirishni ta‘minladi. Bular insonlarni bir muncha yaxshi yashash olib keldi. Urug‘chilik munosabatlar o‘zgarib, ikki urug‘ a‘zolaridan tashkil topgan er-xotin juft oilalar rivojlandi. Bir necha juft oilalar uyushib, katta patrixal oilalar urug‘ jamoasidan ajralib chiqdi, ularga urug‘ jamoalariga qarashli yerlardan chek yerlar ajratib berildi. Shu tariqa urug‘ jamoasining umumiy xo‘jaligi oilalar jamoasiga bo‘lindi. Bunday oilalar jamoasi ishlab chiqarish jamoalari deb ham ataldi. O‘rta Osiyoning kadimiy viloyatlari jamiyati to‘g‘risida yozma manbalardan tashkari arxeologik manbalar dalolat beradi. O‘rta Osiyo miloddan avvalgi VI-IV ayerlarga oid moddiy madaniy yodgorliklarga boydir. Janubiy Turkmanistondagi Elkantepa, Yoztepa, Erqala, Surxondaryodagi Kuchuktepa, Kiziltepa, Janubiy Tojikistonda Qalaimir, Boytudang, Xorazm, Qashqadaryo va Farg‘ona vohalaridagi Ko‘zaliqir, Dingilja, Yerqurg‘on, Uzunqir, Daratepa, Eylatontepa xarobalari shu davrga mansub yodgorliklardir. Qiziltepa, Yerqo‘rg‘on, Uzunqir va Afrosiyob singari qadimiy shaharlarning yoshi .2700.yildan kam emas.

Miloddan avvalgi VI-IV asrda oila jamoasi jamiyatning iqtisodiy asosi bo‘lib, u xo‘jalikni birgalikda boshqargan. Uy jamoasining a‘zolari katta patriarxal oila bulib, ular umumiy turar joyda yashaganlar va mol-mulkka birgalikda egalik qilganlar. Qadimgi zamonlardan boshlab ziroatchilik bilan shug‘ullanishgan, tog‘lari va dashtlarida chorvachilik xatto bir necha asrlar davomida ustunlik qilgan.

O‘rta Osiyoda kulchilik munosabatlari kddimgi Sharq markazlari va qadimgi Yunonistonga nisbatan ancha farq qilib, deyarli rivojlanmagan. Jamiyatda qishloq xo‘jaligi katta ahamiyatga ega bo‘lgan. O‘rta Osiyoda kadimgi kulchilik shakllaridan biri «uy qulchiligi» bo‘lgan. Elam va qadimgi fors yozuvlaridagi «kurtash» bilan «garda» so‘zlari «uy quli» tushunchasini bildiradi. Ular turli iktisodiy vazifalarni bajargan. Misol uchun, «garda-xunarmand», «garda-boshkor»lar bo‘lgan.

O'rta Osiyoning ijtimoiy vaziyatiga ko'ra, ular erkin aholining «mulki» bo'lganligi haqida xam yozma manbalarda aniq ma'lumotlar yo'q.

## **2. Davlatlar paydo bo'lishining mulkchilikka asoslangan “Yevropacha yo'li”**

F.Ratsel o'zining qator asarlarida hududning (zamin) birlamchi hamda o'zgarmas omil ekanligi va xalqlarning manfaati o'zlari yashab turgan zamin atrofida namoyon bo'lishini asoslashga harakat qiladi. Uning nazarida hudud va zamin tarixiy taraqqiyotni oldindan belgilab beradi. Bundan esa tadrijiy mazmundagi quyidagi xulosa kelib chiqadi: “davlat tirik borliq”, aniqrog'i, “zaminda ildiz otgan tana hisoblanadi”. Davlat hududiy relyef, o'lcham hamda ularning xalq tomonidan anglanishidan tashkil topadi. Shunday qilib “davlat” kategoriyasida hududning obyektiv jo'g'rofiy belgilari va ularning umummilliy miqyosda subyektiv jihatdan anglanishi siyosatda ifodalangan holda aks etadi. F.Ratsel millatning jo'g'rofiy, demografik va etnomadaniy xususiyatlarini uyg'unlashtira olgan davlatni “meyordagi davlat” deb hisoblaydi. “Siyosiy geografiya” asarida bu haqda shunday deb yozadi: “Davlatlar o'z taraqqiyotining barcha bosqichlarida zamin bilan uzviy aloqada bo'lgan borliq ekani bois, ular, avvalo, jo'g'rofiy nuqtai-nazardan o'rganilishi zarur. Etnografiya va tarixga oid ilmiy ma'lumotlar davlatning hududiy negizda taraqqiy topishi, u bilan yaqinlashib, birikishi hamda undan quvvat olishini isbotlaydi. Shunday qilib, davlat zamindan boshqariladigan va jonlanadigan hududiy borliq ekan, uni tasvirlash, qiyosiy tadqiq va tahlil etish jo'g'rofiyaning vazifasidir. Davlat ijtimoiy taraqqiyot jarayonida ro'y beradigan hodisalarning eng yuqori nuqtasiga aylangan holda, ularga singib ketadi”.

F.Ratsel bunday “organistik” yondashuv asosida davlatning hududiy jihatdan kengayishini tirik mavjudotning rivojlanishi, tiriklik jarayoni sifatida talqin etadi. Bu hol zaminning o'ziga nisbatan munosabatida ham namoyon bo'ladi. Jumladan “zamin” miqdoriy xususiyatga ega bo'lgan moddiy kategoriyadan “hayotiy muhit”, “hayotiy makon” tarzidagi yangi sifat darajasiga ko'tariladi va o'ziga xos “geyebiomuhit”ga aylanadi. Ana shu mulohazalarga tayangan holda F.Ratsel ikki

muhim tushuncha - “makonning mazmuni” va “hayotiy quvvat” atamalarini ilmiy muomalaga kiritadi. Bir-biriga yaqin ushbu atamalar xalqlar hamda jo‘g‘rofiy tizimlarga xos muhim xususiyatni anglatadi hamda ularning tarixdagi siyosiy ahamiyatini oldindan belgilab beradi.

Geosiyosatning asosiy tamoyillari hisoblangan ushbu tezislar F.Ratselning izdoshlari tomonidan aynan shu asnoda rivojlantirilgan. Bundan tashqari, davlatning “zaminda ildiz otgan hududiy asosdagi tirik jism” sifatida talqin etilishi geosiyosiy uslubning bosh g‘oyasi hamda o‘zagi hisoblanadi. Bunday yondashuv kishilik jamiyatiga tegishli hodisalarnigina emas, balki unga taalluqli bo‘lmagan sohalardagi jarayonlarning butun majmuini tahlil qilish imkonini yaratadi. Bu o‘rinda tabiat va atrof-muhitning yorqin ifodasi bo‘lgan zamin, shu hududdagi kishilar hayotini uzluksiz ta’minlaydigan borliq sifatida talqin etiladi.

Shu ma’noda F.Ratsel, Ferdinand Tennic singari nemis “organistik” sotsiologiya maktabining bevosita vorisi hisoblanadi.

Uning millat va hudud munosabatlariga oid qarashlari “Siyosiy geografiya”dan olingan quyidagi parchada o‘z aksini topgan: “Davlat tirik tana singari Yer yuzasining ma’lum qismiga bog‘liq holda shakllanadi va uning mazmun-mohiyati zamin va xalqning xususiyatlari bilan belgilanadi. Bu o‘rinda hudud o‘lchovi, jo‘g‘rofiy joylashuv hamda chegaralar eng muhim xususiyatlardan hisoblanadi. Tuproq va o‘simliklar turi, sug‘orish tizimi va nihoyat Yer yuzasidagi boshqa unsurlar, dastavval, yaqin atrofdagi dengizlar hamda bir qarashda hech qanday siyosiy ahamiyat kasb etmaydigan kimsasiz hududlar bilan munosabatlar keyinchi o‘rinlarda turadi. Ushbu xususiyatlarning barchasini ifoda etuvchi majmua - dasLand ni, ya’ni mamlakatni tashkil etadi. Biroq “bizning mamlakat” haqida gap ketganda, unga inson tarafidan yaratilgan barcha ne’matlar hamda shu zamin bilan bog‘liq barcha tarixiy xotiralar ham qo‘shiladi. Ana shu tarzda dastlab sof jo‘g‘rofiy tusdagi tushuncha muayyan mamlakat xalqining o‘z tarixi bilan ma’naviy-ruhiy aloqasi omiliga aylanadi.

Davlat turg'un zamindagi xalqlar hayotini ifodalagani uchungina emas, balki bu ikki omil bir- birini o'zaro mustahkamlab, to'ldiradigan, bir-biri bilan mushtarak bir butunlikka aylangani uchun yaxlit "organizm" hisoblanadi. O'zlashtirilgan, ayniqsa, tabiiy chegaralar bilan o'ralgan hududlar esa aksincha, davlatning taraqqiyotini ta'minlaydi. Agar xalq o'z hujudida o'zini tabiiy his qilsa, shu zamindan kelib chiqadigan va unga qaytib singib ketadigan bir xil xususiyatlarni takrorlayveradi".

Ratselning nazarida davlatga nisbatan tirik tana sifatida munosabatda bo'lish "chegaralarning buzilmasligi" qoidasidan voz kechishni talab etardi. Davlat tirik mavjudot singari tug'iladi, o'sib-ulg'ayadi va vafot etadi. Ratsel ana shu qoidaga tayangan holda davlatning hududiy kengayishi va torayishi tabiiy jarayon ekanini ta'kidlaydi va "Davlatning hududiy o'sishi to'g'risida qonun" kitobida uning ichki hayotiy almashinuvi (sikli) bilan bog'liq. istiloning 7 qonuniyatini ko'rsatib beradi:

1. Davlatning hududiy jihatdan kengayishi jarayoni shu hudud madaniyatining rivojlanishi bilan birgalikda kechadi.

2. Davlatning hududiy kengayishi turli sohalarda, xususan mafkura, ishlab chiqarish, tadbirkorlik faoliyati kabi yo'nalishlarda "tortishuvchi nurlanish", prozelitizm bilan uyg'un holda ro'y beradi.

3. Davlat ham o'z navbatida muhim siyosiy birliklarni qamrab olgan holda kengayadi.

4. Chegara davlat atrofida joylashgan tana a'zosi sifatida tushuniladi.

5. Davlat o'zining hududiy istilosini amalga oshirib uning taraqqiyoti uchun muhim hisoblangan mintaqalarni, jumladan qirg'oqdagi Yerlar, daryo havzalari, vodiy va barcha boy hududlarni egallashga harakat qiladi.

6. Istiloning boshlang'ich jarayoni albatta tashqaridan ro'y beradi, negaki davlatning hududiy jihatdan kengayishiga sivilizatsiyaning quyi bo'g'ini tomonidan berilgan turtki sabab bo'ladi.

7. Nisbatan zaif va kuchli millatlar o'zaro chatishuvi yoki qo'shilib ketishi bilan bog'liq umumiy tendensiya ulkan hududlarni harakatga keltirib, yanada kengayishiga majbur qiladi.

### **3. Davlatning kelib chiqishi to'g'risidagi nazariyalar.**

«Davlat» tushunchasiga to'xtaladigan bo'lsak, jamiyat rivoji natijasida ommaviy hukmron guruhlar paydo bo'la boshlagan. Bu ommaviy hukmron guruhlar o'zlarining hukmronligi asosini tashkil etuvchi omillarni himoya qilish maqsadida turli xil harakatlarni amalga oshirganlar. Jumladan, sinfiy tarzda iqtisodiy (mulkiy) qaramlik vujudga keltirilgan, tartibga soluvchi meyorlar (g'oyalar) o'ylab topilgan yoki tartibga solib turuvchi kuch (hokimiyat) tashkil etilgan.

Mulk, g'oya va hokimiyat esa o'z navbatida jamiyatni boshqaruvchi-rivojlantiruvchi kuchlar deb hisoblanadi.

«Davlat» tushunchasi keng ma'noli bo'lib, uning mohiyati deganda davlatning maqsad va vazifalarini, kimga yoki qaysi sinf manfaati uchun xizmat qilayotganligini, huquqiyligi jihatidan qanday tamoyillar bilan asoslanganligini tushunish kerak va buni tushunishda uch asosiy nazariy yondashuv mavjud: ijtimoiy, sinfiy va siyosiy-huquqiy.

Birinchi yondashuvga ko'ra, davlat — umumiy muammolar va ishlarni hal etish vositasi, u hukmdorlar va xalqning o'zaro munosabatini tartibga soladi.

Ikkinchi yondashuvning mohiyati shundaki, davlat sinflarning paydo bo'lishi bilan yuzaga kelgan va sinfiy kurash bir sinfning boshqasini bostirish quroli bo'lib xizmat qiladi.

Uchinchi yondashuvning asosi quyidagicha: davlat jamiyatning va davlatning o'zining hayotini tashkil etuvchi huquq manbaidir.

Davlatning mohiyatini ta'riflashda Arastu o'z fikrini quyidagicha bildirgan «Insonning o'ziga o'xshagan va ozod kishilar ustidan hukmronligini o'rnatuvchi hokimiyat».

Davlatning mohiyatiga bog'liq nazariyalar:

Yelita nazariyasi. Bu nazariyaga ko'ra xalq ommasi davlatni boshqara olmaydi va buni hukmron sinf—yelita sinf amalga oshirishi kerak deb hisoblanadi.

Texnokratik nazariya. Bu nazariyaga ko'ra davlatni mutaxassis-boshqaruvchilar, menejerlar idora etishlari lozim deb hisoblanadi.

Plyuralistik demokratiya nazariyasi. Bu nazariyaga ko‘ra davlatni boshqarishda barcha fuqarolar ishtirok etishi kerakligi va boshqaruvda har qanday odam, har bir birlashma davlat hokimiyatida o‘z «ulushiga» ega bo‘ladi, davlatni boshqarishda ishtirok etadi deyiladi.

Umumiy farovonlik davlati nazariyasi. Bunga ko‘ra davlat barcha sinflardan ustun turar ekan, u barcha fuqarolarning farovonligi va tinch-totuv hayot kechirishligini ta’minlaydi.

Huquqiy davlat nazariyasi. Bu nazariya tarafdorlari davlatning butun faoliyati huquqiy maqsadlarda, huquq asosida va huquqiy vositalar ila amalga oshirilishi kerak, deb ta’kidlaydilar. Konvergensiya nazariyasi. Bu nazariya davlatning istiqboldagi rivojini bashorat qiluvchi nazariya hisoblanib, unga ko‘ra davlatlar birbirlaridan yaxshi taraflarni o‘rganadilar va oxiri hamma davlatlar bir xil ko‘rinishda bo‘lib qoladi.

Tarixiy materialistik nazariya. Bu nazariya asosida tarixiy materializm va sinfiy kurash g‘oyalari yotib, unga ko‘ra davlatning iqtisodiy hukmron sinfiga davlatning quroli deb qaraladi. Darhaqiqat bu har bir nazariyaning o‘ziga yarasha afzallik yoki to‘g‘ri taraflari, shuningdek, keraksiz va noto‘g‘ri taraflari mavjud davlatning mohiyati haqidagi zamonaviy qarashlar

1. Ijtimoiy qarama-qarshiliklarni bartaraf etish (o‘zaro yon bosish, murosa qilish va hk.) vositasi.

2. Umumdemokratik institutlarni (inson huquqlari, oshkoralik, demokratiya, plyuralizm va b.) ta’minlash.

3. Tashqi faoliyat (mudofaa, bosqinchilikdan himoyalaniish, hududiy yaxlitlikni ta’minlash).

• Davlat — suverenitetga, boshqaruvning hamda fuqarolar huquq va erkinliklarini himoya qilishning maxsus apparatiga ega bo‘lgan, shuningdek, huquq normalari (qoidalari)ni yaratishga qodir bo‘lgan ommaviy hokimiyatning siyosiy-hududiy tashkiloti.



- Davlat — butun mamlakat miqyosidagi hokimiyatning maxsus boshqaruv va majburlov apparatiga ega bo‘lgan, barcha uchun majburiy qonunlar chiqaradigan va suverenitetga ega bo‘lgan yagona siyosiy tashkilot.

- Davlat — jamiyat siyosiy tizimining odamlar, guruh, sinf va tashkilotlarning hamkorlikdagi faoliyatini va o‘zaro munosabatini tashkil etuvchi, yo‘naltiruvchi va nazorat qiluvchi asosiy institut.

- Davlat — hokimiyatning bosh instituti. Hokimiyat davlat orqali o‘z siyosatini amalga oshiradi.

- Davlatni vujudga kelishi uchun ijtimoiy tabaqalashuv vujudga kelgan. Ijtimoiy tabaqalashuv esa turli xil sinflarni vujudga keltirgan, ya’ni hukmron va qaram sinflarni. Dastlabki, qaram sinflarning vujudga kelishi uchun faqatgina moddiy ehtiyoj sabab bo‘lgan xolos. YA’ni, bir guruh odamlar (hukmron sinf) turli xil yo‘llar bilan ortiqcha mulk evaziga boyiy boshlaganlar va shu mulki orqali boshqa bir guruh odamlar (qaram sinf)ni boshqara olganlar. Endi bu ijtimoiy tabaqalashuv qanday sodir bo‘lgan? Buning sabablari turli xil bo‘lib, bir necha nazariya asosida tushuntirilgan. Shu o‘rinda savol tug‘iladi: qaysi nazariya to‘g‘riroq? Agarda tarixga nazar tashlasak turli xil davlatlarning vujudga kelishidagi tabaqalashuv turli xil omillar asosida sodir bo‘lgan

- Ilohiy (teologik) nazariya. Bu nazariya asoschilari vakillari davlatning xudo tomonidan yaratilganligini uqtiradilar, «butun hokimiyat xudoniki» degan qoidani ilgari suradilar. Bu nazariya qadimda paydo boigan va o‘rta asrlarda keng tarqalgan. Ushbu nazariya teokratik, ya’ni davlat boshlig‘i ayni paytda uining diniy rahnamosi bo‘ladigan davlat qaror topgan davrdagi jarayonlarni aks ettiradi. Sharq davlatlarining «Podshoh xudoning yerdagi soyasi» degan fikri ham buni ifodalaydi.

- Palriaixal nazariya tarafdorlari davlat kattalashib ketganidan bevosita kelib chiqqan, inonarx hokimiyati esa go‘yo oilaning barcha a‘zolariga rahbarlik qiladigan otadan meros bo‘lib o‘tgan deb hisoblaydilar. Ushbu nazariya Yunonistonda (qadimgi Gretsiyada) paydo bo‘lgan Aflotun (Platon) va Arastu (Aristotel)lar o‘z asarlarida asoslab berganlar. Aflotun o‘zining mashhur «Davlat» asarida oiladan o‘sib chiqqan yuksak adolatli davlatni tasvirlaydi.

- Adolat g'oyasining o'zidan kelib chiqsak deydi Aflotun, adolatli odam hech nimasi bilan adolatli davlatdan farq qilmaydi. Inson ruhining uch asos (aql, jaholat va nafs)ga maslahat, muhofazaga asoslangan tadbirkor davlatga muvofiq kcladi. Keyingilariga hukmdorlar, askarlar va ishlab chiqaruvchilar (hunarmandlar va dchqonlar)ning uch tabaqasi to'g'ri kcladi'.

- Bu g'oya XVII asrda ingliz olimi Filmerning «Patriarx» asarida rivojlantirilgan. Muallif Injilga asoslanib, Odam Atoning hokimiyatni xudodan olib, o'zining katta o'g'li, patriarxga, u esa o'zining avlodlari bo'lgan qirollarga berganligini isbotlashga uringan.

- Shartnoma nazariya. Gollandiyada ushbu nazariyani Grosiy va Spinoza, Angliyada Lokk va Gobbs, Fransiyada Russo, Rossiyada A. N. Radishchcv rivojlantirgan. Ularning fikricha, hokimiyat xalqqa tegishli bo'lib, xalq uni monarxga bergan. Shartnoma nazariyasiga ko'ra, davlat — ongli ijod mahsuli, odamlar kelishgan ahd natijasi. Davlat — o'zaro kelishuv asosida va ongli tarzda birlashgan kishilar tashkiloti bo'lib, ana shu shartnoma asosida ular o'zlarining erkinliklari va hokimiyatining bir qismini davlatga beradilar.

- Zo'ravonlik nazariyasi (Gumilovich, Kautskiy, Dyuring)ga ko'ra, zo'ravonlik asosida bir qabila ikkinchi qabilani bosib oladi va natijada bosib olingan qabila bosib olgan qabilaga itoatkor hisoblanadi. Bosib olgan qabila esa hokimiyatini mustahkamlash uchun davlatni tuzadi.

- Irrigatsiya nazariyasiga ko'ra, davlatlarning kelib chiqishi, ularning ilk shakllari Sharqda ulkan irrigatsiya (suv) inshootlarini qurish va ulardan foydalanish bilan bog'liq. Ushbu nazariya nemis olimi Vittfogelning «Sharq istibdodi» asarida ifodalab berilgan.

- Sinfiy nazariya namoyandalari -davlat iqtisodiy sabablar — ijtimoiy mchnat taqsimoti, qo'shimcha mahsulot va xususiy mulkning paydo bo'lishi, jamiyatning qarama-qarshi iqtisodiy manfaatlarga ega sinflarga ajralishi tufayli kelib chiqqan. Ushbu jarayonlarning obektiv natijasi o'laroq davlat o'zining maxsus boshqarish va bostirish vositalari bilan ana shu sinfiarning kurashini bostirib turadi. Bunda davlat hukmron sinf manfaatlarini himoya qiladi..

- Psixologik nazariya. Bu nazariya asoschilari davlatning paydo bo'lish sabablarini insonning ruhiy holati, biopsixik instinktlari bilan bog'laydilar. Taniqli rus olimi L.L.Petrajitskiy go'yo inson ruhiyati (psixikasi)ga «buyuk» shaxslarga tobelik, bo'ysunish ehtiyoji mavjud, degan g'oyani o'rtaga tashlaydi.

- Nemis psixoanalitigi Z.Freyd esa davlatni tashkil etish zaruriyatini insonning psixikasiga quyidagicha bog'laydi. Alohida hirsiy va biopsixik instinktlar ta'siri ostida harakat qilayotgan isyonchi o'g'illar tomonidan boshlig'i o'ldirilgan avval mavjud boigan patriarxal o'rdadan insonning tajovuzkor mayllarini bostirib borish maqsadida davlat paydo bo'lgan.

- Islomnazariyasi. Bu nazariya islomda fiqh fani doirasida VIII-X asrlarda tarkib topgan. Uni ta'riflashda klassik musulmon huquqida hokimiyat munosabatlarini tartibga soluvchi Qur'on va Sunna qoidalari ko'p emasligini nazardan qochirmaslik muhimdir. Bundan tashqari «davlat» atamasining o'zi ular tomonidan qo'llanilmaydi. Faqat «imomat» (dastlabki ma'nosi namozga imomlik) va «xalifalik» (vorislik) tushunchalari mavjud. Ular keyinchalik musulmon davlatini ifodalashda qo'llana boshlagan.

- Davlatning kelib chiqishi haqidagi Islom ta'limoti asosida eng yirik huquqshunoslardan bin al-Mavardi (974-1058) qarashlari yotadi. U davlatga dinni himoya qilish va dunyoviy ishlarga rahbarlik bo'yicha Payg'ambar (S.A.V.) vazifalarini bajarishda voris deb qaraydi.

### **Nazorat savollari:**

1. Davlatchilik nima?
2. Davlatchilikning kelib chiqishi to'g'risidagi sivilizatsiyaviy yondashuvlarni izohlang.
3. Davlatlar paydo bo'lishining ishlab chiqarish usuliga asoslangan "Sharq yo'li" tushuntirib bering.
4. Mulkchilikka asoslangan "Yevropacha yo'li" qanday yo'l?
5. Davlatning kelib chiqishi to'g'risida qanday nazariyalar bor?
6. Qadimgi davlatlarning rivojlanish bosqichlari, va boshqaruv tizimidagi

funksiyalarni sanab bering.

7. Iqtisodiy - ijtimoiy funksiyalar va ularning faoliyatlari

8. Harbiy-siyosiy funksiyalar va ularning faoliyatlari

9. Hududiy funksiyalar va ularning faoliyatlari.

### **Foydalangan adabiyotlar ro'yxati**

1. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.

2. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 592 b.

3. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2020. – 400 b.

4. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2018.

5. Alimova D.A. Istoriya kak istoriya, istoriya kak nauka. T. I. Istoriya i istoricheskoye soznaniye. – T.: Uzbekiston, 2008.

6. Rtveladze E.V. Istoriya gosudarstvennosti Uzbekistana. – Toshkent: Uzbekistan, 2009.

7. Rusina Y.A. Metodologiya istochnikovedeniya. – Yekaterinburg, 2015.

### **IV. Internet saytlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rtamaxsus ta’lim vazirligi: [www.edu.uz](http://www.edu.uz).

2. Bosh ilmiy-metodik markaz: [www.bimm.uz](http://www.bimm.uz)[www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

**4-mavzu: Boshqaruv asoslarining shakllanishi va davlatlarning tashkil topishi. O‘zbekistonda qadimgi davlatchilikning turlari va boshqaruv shakli.**  
**(2 soat)**

### **Reja:**

1. Boshqaruv asoslarining shakllanishi va davlatlarning tashkil topishi.
2. O‘zbekistonda qadimgi davlatchilikning turlari va boshqaruv shakli.  
(Axmoniylar, Dovon va Qang‘, Kushon davlatlari hududi va boshqaruv tizimi)

**Tayanch suzlar:** ilk shahar-davlatlar, cheklanmagan podsho hokimiyati, mutloq monarxiya, Satrapliklar, yunon-baktriya davlati, boshqaruv tartibi, davlat tuzimi, Dovon, Qang‘ davlatlari, hudud, va Kushon davlati, xo‘jalik boshqaruvi.

### **Boshqaruv asoslarining shakllanishi va davlatlarning tashkil topishi.**

O‘zbek xalqi davlatchiligi yani jamiyat hayotini boshqarish tamoyillariga asoslangan dastlabki siyosiy tuzilmalar o‘troq , sun’iy sug‘orish dehqonchilik va chorvachilik zaminida bronza davridayoq Amudaryo va Sirdaryo havzalarida vujudga kela boshlagan. Uning tadrijiy davomida mil. av 1 ming yillik boshlarida aniqrog‘i VIII-VII asrlarda Vatanimiz hududlarida “Katta Xorazm”, “Baqtriya”, “So‘g‘diyona” nomi bilan mashhur bo‘lgan dastlabki davlatlar barpo bo‘lgan.

Xorazm davlati egallagan hudud, hozirgi Xorazm yerlari bilan chegaralanib qolmay, balki undan ancha janubiga (Marv, Turkmaniston , Xirotda (Afg‘oniston shimoliy) atroflarigacha yoyilgan.

Mil. av so‘ngi ming yillikning boshlariga tegishli Amirobod madaniyati, Quyi Amudaryo havzasida yuzaga kelgan o‘ziga hos sun’iy sug‘orish inshooti hamda dastlabki shaharozlik timsoli bo‘lgan shahar , qal’alar –Qal’alaliqir, Ko‘zaliqir va boshqalar bular Xorazm vohasidan davlat tuzilmalari mavjudligidan dalolat beradi.

Negaki, bu singari umumelatlar, qavm-qabilar manfaatlariga xizmat qiladigan muhim o‘zgarishlar davlat boshqaruVI yo‘li bilangina amalga oshirishi mumkin bo‘ladi. Qadimshunos olim Y. G‘ulomov tomonidan aniqlangan 200 km uzunlikdagi eni bir necha o‘nlab metrdan iborat bo‘lgan kanal o‘zani obod dehqonchilik madaniyati Xorazm davlati qadimdan insoniyatning yirik madaniy maskanlaridan biri sifatida shuhrat topganligidan guvohlik beradi.

Geradod ma'lumotiga qadimda Oks (Amudaryo) daryosi bo'ylab 360dan ziyod sun'iy sug'orish kanallari suv inshootlari barpo etilib cho'lli, sahro yerlarga suv chiqarilib dehqonchilik uchun ekin maydonlari kengaytirib borilgan. Geradod Xorazmga meva sabazvotning , g'allani barcha turlarini yetishtiradigan o'lka deb qayd etgan. Bu ko'hna hudud bag'rida ming yillar davmomida saqlanib kelayotgan ko'plab asori-atiqalar saqlanib yotganligini eslatib o'tgan.

Afsuski, Xorazm davlatida hukmronlik qilgan sulolalar to'g'risida ma'lumotlar hozircha aniq emas. Ba'zi bir tahminlarga qaraganda, Xorazmning siyosiy sulolasi Siyovushonlar sulolasi bo'lganligini zikr etadilar.

O'zbek davlatchiligining yana bir asosi – Baqtriya podshohligidir. Uning tarkigida Hozirgi Surxondaryo, Tojikiston janubi, Afg'onistonning shimoliy – sharqiy qismi, So'g'diyona va Marg'iyona yerlari kirgan.

Rim tarixchisi Kurtsiy Rufning fikricha, “Baqtra daryosi nomidan shahar , Viloyatning nomi chiqqan” .

Binobarin, “ Baqtriyaliklar “ juda qadim manbalarda tilga olinib, bir necha qabilalarni birlashtirgan tushunchani anglatadi.

Ktesiy ma'lumotiga ko'ra, bu o'lka obi-hayotga mo'l-ko'lligi unumdor yerlari ko'p bo'lganligidan, bu hududda dehqonchilik madaniyati taraqqiyo topgan, aholi bog'dorchilik , mevachilik mahsulotlari yetishtirishda omilkor bo'lgan.

Qashqadaryo vohasining mil. av VIII-VII asrlariga oid Sangirtepa , Uzunqir, Yerqo'rg'on, Zarafshon vodiysida Afrosiyob, Ko'ktepa singari makonlarni o'rganish shuni ko'rsatadiki, bu joylarda o'troq turmush kechirgan qavm, elatlar dehqonchilik bilan faol shug'ullanganlar.

Yunon tarixchisi Ktesiy va Geradodlarning bergan ma'lumotlariga Baqtriya xalqi Misr va Bobil kabi yirik rivojlangan davlatlardan biri bo'lib, bu o'lka bitmas-tugamas boyliklar makoni degan edilar.

Shunday qilib, yuqoridagi keltirilgan fikrlar shundan dalolat beradiki, qadimgi o'zbek davlatchiligi tarixiy tajribasining muhim jihatlari, namunalari sifatida alohida qimmatga egadir.

Tarixiy manbalar shuni ko'rsatdiki, davlatchilik jamiyatining ichida o'z ichki qonuniyatlari ichida asosida paydo bo'ldi, rivojlanadi ya'ni davlat tuzummasi tashqaridan tayyor holda ko'chirilmaydi, ma'lum jamiyat bag'rida tug'iladi. O'zbek davlatchilik taraqqiyoti ham bundan mustasno emas .

O'zbekistonda "Voha davlatchiligi", "Shahar davlatlar", Mesopotamiya, Misr, Xitoy, Mezoamerikadagi "noma" davlatchiligi kabi ilk sivilizatsiya belgilari paydo bo'ldi va rivojlandi. Shular asosida mil. av VIII-VII asrlarda Baqtriya podsholigi va "Katta Xorazm" davlatlari shakllandi.

### **O'zbekistonda qadimgi davlatchilikning turlari va boshqaruv shakli.(Axmoniyalar, Dovon va Qang', Kushon davlatlari hududi va boshqaruv tizimi)**

Mil. av. VI asr o'rtalarida eronda vujudga kelib kuchayib borgan Ahmoniyalar davlati qisqa davr ichida o'z atrofidagi qator davlatlar, xalqlarni (Ossuriya, Urartu, Midiya, Bobil va boshqa) o'z tarkibiga birlashtirib yirik saltanatga asos soldilar. Bu davlatning asoschisi Kir II O'rta Osiyo yerlariga yurish qildi. Uning yurishini bosqichga bo'lish mumkin: 1-bosqichi mil.av: 545-539 yillarga to'g'ri keladi. 2-bosqichi mil.av: 539-530 yillarni o'z ichiga oladi. Erksevar O'rta Osiyo xalqlari Ahmoniylarga bo'ysinmaslik uchun kurash olib bordilar. Bu esa KirII ni qayta-qayta qo'shin tortib kelishiga majbur etdi. Bu haqda yunon tarixchilari Geradod, Yustin, Strabonlarning asarlarida ishonchli dalillar bilan berilgan. Kirning massagetlarning jasur malikasi, mard ayol To'maris o'rtasidagi munosabatlar, o'zaro urushi uning yakunlariga oid ma'lumotlar alohida e'tiborga loyiqdir.

200 ming armiya bilan massagetlarni yengolmagandan so'ng u hiylayu nayrang ishlatdi. Biroq, To'maris uning shartlariga ko'nmagandan so'ng yana hiyla ishlatib To'marisning o'g'li Sparangisni asirga olib, uni qatl etadi. So'ng To'maris Kir II armiyasiga qarshi xayot- mamot urushini olib borishga jiddiy tayyorgarlik ko'rib, janga kirishib Kir II armiyasini 529- yilda yengdi va Kir ham halok bo'ldi. Mil. avv: 522 yili ahmoniyalar shohi bo'lib ko'tarilgan Doro I (522-486y.) davrida O'rta Osiyo hududlarini to'la-to'kis qo'lga kiritishga qaratilgan urushlar samarasiz kechdi. Doro

I qo'shini 519 yil sak (shak) lar yurtiga yurish qilgan paytda oddiy cho'pon Shiroqning mardlik tuyg'usi jo'sh urgan. Shiroq dushmanni ishontirish uchun quloq, burnini kesib tanasini qonga bo'yalgan hola Doro I qarorgohiga keladi va yetti kecha va kunduz Qizilqum cho'llarida Doro I armiyasi halokatga uchratadi va o'zi ham shu yerda halok bo'ladi. Doro 1519-518 yillarda sak qabilalarini bo'ysundiradi.

Eron Ahmoniylariga qarshi xalq qo'zg'olonlari doimo yuz berib turgan. Marg'iyonada ko'tarilgan qo'zg'olonga Frada degan shaxs boshchilik qilgan. Biroq Doro I qo'shini barcha qo'zg'olonlarni bostirgan, o'ch olgan va 55 ming qo'zg'olonchilar qatl etildi, 7 ming kishi qatl etildi.

Eron Ahmoniylari bosib olgan mamlakatlarni itoatda tutmoq uchun "satrap" (viloyatlarga) bo'lgan. O'rta Osiyo to'rtta satraplikka bo'lingan. 1). Kaspiy dengizi bo'ylarida yashovchi qabilalar II- satrapiya bo'lib, 200 talant (bobil pul birligi: 1 talant 30, 3 kumushga teng) Baqtriya 12 satrapiya bo'lib 360 talant , saklar 15 satrapiya bo'lib, 250 talant, Xorazm, So'g'd va Parfiya 16 satrapiya bo'lib, 300 talant miqdorida yillik soliq to'lardilar.

Fors yozuvi manbalarga qaraganda, O'rta Osiyoliklar soliq sifatida qimmatbaho toshlar , chorvachilik va dehqonchilik mahsulotlarini ham berib turganlar.

Har bir satraplik tepasida shoh tomonidan tayinlangan ahmoniylarga mansub satrap ya'ni hukmdor xokimi mutloq sifatida siyosat yuritgan va mahalliy aholini itoatda ushlab turgan.

Aniq dunyo tarixida Makedoniyalik Iskandar Zulqarnayn Yunoniston, Kichik Osiyo, Arabiston hududlarini qudratli harbiy kuch bilan egallab, o'z hukmronligini o'rnatgan Iskandar mil. av. 331 yil oktabrida Gavgamel yonida (shimoliy-sharqiy Mesopotamiya) bo'lgan jangda eron qo'shinlarini yengadi. Eron podshohi Doro III Iskandardan uzil-kesil yengilib mamlakat sharqiga Baqtriyaga qochadi. U yerda esa Baqtriya satrap Bess tomonidan o'ldiriladi. U ham tez orada o'ladi, mil. av 330-329 yilning qishida Afg'oniston janubini egallab, Hindiston davoni orqali Baqtriya poytaxti Baqtra (Hozirgi Balx) shahrini egallaydi. Ko'p o'tmay Qashqadaryo viloyatlariga kirib keladi, so'ng Samarqandni va mamlakatni shimoliy-sharqiy



hududlariga yurishlari mahalliy xalqni qattiq qarshiligiga duchor bo‘ladi.

So‘g‘diyona va Baqtriya aholisidan lashkar tuzib, Spitamen Iskandar armiyasiga qashqatqich zarbalar berdilar. Biroq Spitamen armiyasi yengilib, saklar yurtiga chekindi. Mahalliy zodogonlarni uni o‘limiga olib keldi. Rahbarini yo‘qotgan qo‘zg‘olonchilar tezda tarqalib ketdi. Iskandar O‘rta Osiyoni ko‘pgina hududlarini bosib olgan bo‘lsada, Farg‘ona, Xorazm, Shosh yeriga egalik qila olmadi. O‘tgan uch yillik jangdan so‘ng O‘rta Osiyoni boshqarishni o‘zining ishonchli odamlariga topshirib mil. av. 327 yil Hindiston tomon qo‘shin tortdi. Biroq mil. av. 323 yilda Bobilda vafot etdi.

Iskandarni Sharqqa, jumaladan O‘rta Osiyoga yurishlari bejiz ketmadi. Sharq bilan G‘arb o‘rtasidagi turli munosabatlarning bog‘lanishiga turtki berdi. keyinchalik ellinizm (Bolqon yarim orolidagi ellada shahri nomi bilan bog‘liq) madaniyati deb atalgan turli siVilizatsiyalarning o‘zaro tutashishidan iborat ilg‘or madaniy jarayon vujudga yuzaga keldi. Bu esa turli xalqlarning bir-birlari bilan yaqindan aloqa bog‘lashlarida birgalashib, umumbashariy qadriyatlarni qaror topdirib, borishida muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

Iskandar vafotidan keyin mil. av. 312 yildan boshlab uning iste‘dodli sarkardalaridan Salavk nomi bilan atalgan salavkiylar sulolasi sharqiy hududlarga hukmronlik qila boshladi. O‘rta Osiyo yerlari ham uning tarkibiga kirgan edi.

Shunday qilib Salavka Bobil , So‘ziana, Midiya, Old Osiyo , eron va O‘rta Osiyo hududlariga o‘z hukmronligini o‘rnatdi.

O‘rta Osiyodagi viloyatlar salavkiylar davlati siyosiy tarixida yetakchi o‘rinlardan birini egallaydi. Salavka Spitamenning qizi Antiox I o‘zini mil. av. 293 yili Sharqiy satraplarga, jumladan O‘rta Osiyo yerlariga hokim etib tayinlaydi. O‘zining uzoq yillik hukmronligi davrida (mil. av. 293-261 y) Antiox G‘arbga qilgan ko‘pgina yurishlari bilan shuhrat qozondi. U o‘z davlatining Sharqqa, jumladan O‘rta Osiyo yerlariga kam e‘tibor qaratdi. Ular hukmronligi davrida O‘rta Osiyo iqtisodiy jihatdan yuksalishiga erishdi, hunarmandchilik, savdo, qishloq xo‘jaligi katta o‘zgarishlar sodir bo‘la boshladi. Buyuk ipak yo‘li qayta tiklanib, yo‘llarda obod shahar va qishloqlar barpo etildi.

U Iskandar an'analariga sodiq qolib, strapiyalarni yirik viloyat uyushmalari sifatida saqlab qoldi. Tangashunoslik manbalariga qaraganda Salavka I davlati Ahmoniylar va Iskandar davlatiga nisbatan ancha kichik bo'lib, hokimiyat 27-28 strapiyalarga bo'lingan.

Har qaysi strapiyani shoh tomonidan tayinlab qo'yilgan strap yoki strateg deb nomlanuvchi shaxs boshqargan. Fors straplaridan farq qilgan hamda ular ham ma'muriy ham harbiy boshqaruvni qo'lga olganlar. Strap-strateg ma'muriy boshqaruvda eng yaqin odamlaridan o'ziga yordamchi tanlagan. Bu yordamchi, soliq yig'uvchilar faoliyati, ichki va tashqi savdo xo'jalik hayotni nazorat qilib borgan. Salavkiylar hukmdorlari asosan yunonlardan va ayrim hollarda aholidan tayinlangan. Tarixiy manbalarda salavkiylar strapstrateglari yunoncha tildan olingan (strapnik, Aleksandr va boshqalar). Demak, salavkiylar hukmdorlari asosan yunonlardan va ayrim hollarda ellinlashgan mahalliy aholidan tayinlashgan. Salavkiylar bilan birga mahalliy zodogonlar ham hokimlik qilardi.

Mil. av. III asrning 60-50 yillariga kelib salavkiylar hukmdorlari orasida hokimiyat uchun kurash boshlandi va o'zaro janjallar mamlakatni kuchsizlantirib qo'yadi. Natijada O'rta Osiyodagi xalqlarni siyosiy hayotida o'zgarishlar yuz berdi. Mil. av. 250 yilga kelib dastlab parfiya keyin Yunon Baqtriya davlatlari ajralib chiqib o'z mustaqilligini qo'lga kiritdilar.

Yunonlarning uzoq davom etgan hukmronliklari davomida yunon madaniyati bilan Sharq xalqlari madaniyati o'zaro singishib, bir-birini boyitib bordiki, bu hol ellinizm nomi bilan mashhur bo'ldi. Baqtriyada yunon yozuvi, pul munosabatlari, og'irlik o'lchov birliklari tarqaldi. Shaharsozlikda yanicha yo'nalishlar rivojlandi.

Tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda, salavkiylar sulolasi bilan doimiy ravishda olib borilgan kurashlar natijasida mil av. III asrning boshlarida Qang' davlati paydo bo'ldi. U Yunon-Baqtriya ko'chmanchi qabilalar bilan olib borilgan kurashlar oqibatida O'rta Osiyodagi yirik davlatlardan biriga aylandi. Bu davlatning asosiy negizini Sirdaryoning o'rta oqimida yashovchi qang'lar tashkil qiladi.

Mil. Av II asrning boshlariga kelib, Qang' davlatining yerlari birmuncha kengayib, Sharqda Farg'ona vodiysi (Dovon) , shimoliy-sharqda usun, yuyeji

qabilalari bilan shimoliy-gʻarbda Sarisuv daryosi, gʻarbda Sirdaryogacha borgan. Bu katta hudud Toshkent vohasi, Tolos vodiysini va qisman Chu vodiysini quyi oqimidagi yerlarni hisoblangan. Mil. av. II-I asrlarda Xorazm oʻzlariga boʻysundiriladi.

Katta xan sulolasi mil.av 202 y Qangʻuy (Qangʻ) podshosi oʻz oqsoqollari bilan maslahatlashib ish yuritgan. Qangʻ davlati kengashida qabila boshliqlari, harbiy sarkardalar faol ishtirok etganlar. Podsho saroyi qoshidagi kengashda davlatning ichki va tashqi siyosati maslahat bilan hal qilingan.

Qangʻ dalatiga qarashli yerlar bir necha Viloyatlarga boʻlinib, ularning har birini alohida hokim boshqargan. Viloyat boshliqlari jobu yoki yobu deb atalgan.

Qangʻ hukmdori mamlakatni ana shu jobularga tayanib idora etgan. Bu Viloyatlarning koʻpchiligi Qangʻ davlatining kuchaygan davlatlarida, mil. av. II-I asrlarda tobe etilgan.

Xitoy manbalarida taʼkidlashicha, Toshkent, Soʻgʻdiyona va Xorazm hududlaridagi beshta joy: Susyye, yuni, chu, yuyechyanʼ, fuli viloyatlari eslatib oʻtiladi.

Qangʻ podsholarini ikkita: yozgi va qishki qarorgohlari boʻlgan. Ular yozni Oʻtrorda (Qozogʻistonni Aris va Turkmaniston oraligʻida) qishni esa Qanha (hozirgi Toshkent Viloyati Oqqoʻrgʻon tumanida) oʻtkazganlar.

Sirdaryoning oʻrta oqimida yashovchi aholining maʼlum qismi mil. av. III milodiy V asrlarda oʻtroq hayot kechirganlar. Arxeologik tadqiqotlar natijasi shuni isbotladiki, Oʻtror, Oqtepa, Qorovultepa, Qovunchi, Choshtepa, Ming oʻrik harobalari oʻrnida qangʻlilarning qoʻgʻonlari, koʻhna shaharlari boʻlgan. Toshkent vohasida yashaganlar asosan oʻtroq hayot kechirib hunarmandchilik, dehqonchilik, bogʻdorchilik bilan, koʻchmanchilar esa chorva bilan shugʻullangan.

Qoramozor, Qurama va Chotqol togʻlarida temirchilik, misgarlik kabi hunarmandchilikni rivojlantirish uchun maʼdanlar boʻlgan. Bu yerdan mis, temir, kumush kabi boshqa metallar qazib olingan. Toshkent vohasidagi Qovunchitepadan Qangʻarlarga xos madaniyat topib oʻrganilgan va fanda Qovunchi madaniyati bilan mashhur. Bu Toshkent vohasi, Sirdaryoning oʻrta oqimi, Yettisuv, Shimoliy

Fargʻonada keng tarqalgan.

Buyuk ipak yoʻli necha asrlar davomida ne-ne mamlakatlar va boshqa xalqlarni bir-biriga bogʻlash aloqalarini mustahkamlashdagi mislsiz xizmatini alohida taʼkidlash joiz. Bu ilk bor Xitoy hududidan boshlanib gʻarb tomon 12 ming kmga choʻzilib sharq bilan gʻarbni birlashtirgan savdo yoʻli edi.

Qadimgi Fargʻona davlati tarixi haqida fikr yuritilganda akademik A. Asqarov va boshqa tadqiqotchilarning ilmiy izlanishlaridagi xulosaga koʻra, miloddan avvalgi VII-VI asrlardan to milodiy V asrga qadar boʻlgan davr tarixini koʻz oʻngimizga keltiramiz. Chunki undan avvalgi davr Qadimgi Fargʻona tarixida ibtidoiy jamoa tuzumi va V asrdan boshlab esa uning feodal davri tarixi boshlanadi. Fargʻonaning qadimgi davri tarixi quldorlik davriga toʻgʻri keladi. Biroq soʻngi yillardagi arxeologik tadqiqotlar natijasiga koʻra, Qadimgi Fargʻona davlati tarixida uning ijtimoiy-siyosiy hayotida erkin jamoa xoʻjaligi jamiyat rivojida asosi qatlamni tashkil etadi.

Qadimgi Fargʻonaning ana shu davr tarixida, Xitoy manbalariga koʻra Dovon (xitoycha) davlati boʻlgan. Ammo bu davlat qaysi asrda paydo boʻlganligi qachon inqirozga yuz tutganligi haqida maʼlumot yoʻq. Faqat mil. av. II-I asrlarda qudratli Dovon davlati boʻlganligi haqida maʼlumotlar saqlangan.

Shuningdek , mil. av. VI-IV asrlarda Baqtriya, Parfiya, Margʻiyona, Soʻgʻd, Xorazm davlatlarini eron ahmoniylari va iskandar Zulqarnaynga tobe boʻlganligi haqida yetarli maʼlumot bor. Demak, siyosiy erkini saqlab qolgan. Yuqoridagi fikr-mulohazalardan kelib chiqadigan boʻlsak, Qadimgi Fargʻona davlati – Davon mil.avv: II asrda emas,balkiIII-IV asrlardayoq shakllangan davlat sifatida mavjud edi. U qadimda Parkan deb atalgan.

Tadqiqotchilarning fikrlariga qaraganda, Dovon davlati maʼlum siyosiy uyushmani tashkil etgan boʻlib podsho unvoni bilan ish yurtgani taʼkidlanadi. Davlat hukmdori mamlakatni siyosiy va diniy hayotida muhim rolʻ oʻynagan boʻlib, oqsoqollar kengashiga tayanib ish koʻrgan. Oqsoqollar urush va sulh tuzish masalalarini hal etishda ishtirok etganlar, baʼzan ular hukmdorlarning taqdirini hal etganlar.

Hukmdorning yonida eng yaqin qarindoshlaridan ikkita yordamchi bo‘lgan. Hukmdor davlat ishlarini olib borishda oqsoqollar kengashiga suyangan. Oqsoqollar kengashi hukmdor bilan birgalikda davlat ahamiyatiga molik ijtimoiy-siyosiy va diniy masalalarni hal etgan. Shu bilan birga oqsoqollar kengashi hukmdor faoliyatini muhim masalalarda nazorat qilib borgan.

Oliy kengash oldida hukmdorlarning huquqlari cheklangan edi. Ayniqsa, urush va tinchlik, diplomatik masalalarda hal etuvchi kuch va huquq oliy kengash qo‘lida edi. Oliy kengash hukmdorni hokimiyatdan tushirish o‘rniga yangisini tayinlash, saylash mumkin bo‘lgan. Bordi-yu, davlat qo‘shinlari yengilsa, Oliy kengashga hukmdorni o‘lim jazosiga tortilganligi haqida qaror qabul qilish huquqini bergan. Hukmdorlar han muguan so‘ng motsoylardir.

Dovon davlatining siyosiy tuzumi shahar – davlat yoki voha davlatlarining erkin ittifoqidan tashkil topgan konfederasiya edi. Bunday davlat tuzumining vujudga kelishida Qadimgi Farg‘onada so‘ngi bronza davrida (mil av XI-VII asrlar) shakllangan dehqonchilik vohalari va ular bazasida tashkil topgan qadimgi shaharlar asos bo‘lgan. Ana shunday dehqonchilik vohalarining soni Qadimgi Farg‘onada 10 dan ortiqdir. Ular, Aravonsoy, Akbura, Sultonobod, Qo‘rg‘ontepa, Andijonsoy, Shahrixonsoy va boshqalar kiradi.

Dovon davlatini poytaxti –bosh shag‘ar O‘zgand vohasida Sho‘rabashat o‘rnida bo‘lgan deyiladi.

Dovonda dehqonchilik madaniyati avj olgan, bug‘doy, sholi, arpa, tariq, jo‘xoro va boshqa ekinlardan mo‘l hosil yetishtirgan, ayniqsa mevachilik, bog‘dorchilik ulardan olma, o‘rik, uzumchilik rivojlangan bo‘lib, musallas, vino sharbati mashhur bo‘lgan.

Xitoy sayyohi Chjan Syanning xabariga ko‘ra, Dovonda 70 ta obod shahar bo‘lgan. Dovon davlati qo‘shni davlatlar bilan savdo-sotiq ishlarini avj oldirgan. Mil. av. II boshlab, Qoshg‘ardan Dovonga karvon harakati yo‘li boshlandi hamda savdogarlarni xavfsizligini ta’minlovchi qal’alar barpo etildi.

Dovonda ayniqsa, chorvachilikni o‘ziga xos tomoni bo‘lib, zotli chopqir otlar bilan mashhur edi. “Samoviy otlari” Xitoyning Xan davlatda shuhrat qozongan va

Xitoy imperatori Dovon otlarini nihoyatda qadrlaganlar.

Dovonning siyosiy va madaniy rivojlanishida hunarmandchilik markazi bo'lgan qadimgi shaharlar ayniqsa katta ahamiyatga ega bo'lgan.

Bu davrga oid arxeologik topilmalar shundan dalolat beradiki, dehqonchilikdan ixtisoslashgan hunarmandchilik ajralib chiqib, bu jaryon o'z navbatida tog' - kon sanoatini keng rivojlanish imkoniyatini beradi va qo'shni davlatlar bilan iqtisodiy, siyosiy aloqlarni mustahkamlashda katta ahamiyatga egadir. Bu davrdagi tashqi savdoda tanga pullar ishlab chiqarilmaganligi sababli mahsulot ayriboshlash ustun bo'lgan.

Kushon davlati mil. av. II asrning ikkinchi yarmida Sharqiy Turkiston hududlarida yashovchi turkiy qavmlar qo'shnisi xunlar tayziqiga uchrab, ularning siquviga bardosh berolmay g'arbga tomon siljiydilar. Xitoy manbalarida ular yuyechjilar deb atalgan. yuyechjilar Issiqko'l atrofida sak qabilalari bilan to'qnashib, ularni janubiy -g'arb tomonga suradilar. Biroq yuyechjilar usun qabilalari zarbasiga uchrab, janubga siljib, mil. av. 130 yillarda So'g'diyona hududiga kirib keladilar. Ular So'g'diyonadan Baqtriyaga va baqtriyadagi yunonlar hukmronligini ag'daradilar, yuyechjilar Farg'ona vodiysini ham egallaydilar. Ular beshta siyosiy xonodonga mansub edilar. 1. Guyshuan (Kushon); 2. Xyumi; 3. Shuanmi; 4. Xiyos; 5. Xuanmi. Ularni har biri qariyb 100 yilcha alohida siyosiy kuch, hokimlik bo'lib, yagona hukmdorga bo'ysunmagan holda faoliyat yuritadilar. Mil. av. I asrda Kujula Kadfiz barcha yuyechji qabilalarini birlashtiradi va butun Baqtriyada siyosiy hokimiyatni egallaydi. So'ng qo'shni So'g'diyona, Marg'iyona, Hindistonning shimoliy-g'arbiy qismini zabt etadi, Qandahor, Qobul hududlarini egallaydi.

Mamlakat poytaxti Dalvarzintepa (Surxondaryo Viloyati) shahri bo'lgan. Kushonlar sulolasi davrida o'zbek davlatchiligi saltanatlik bosqichiga ko'tarildi. Kushon davlatini boshqargan sulolalar asos solgan -Kujula Kadfiz(mil. av. Birinchi asr boshlarida), uning o'g'li Vima Kadfiz (mil. av. I asr o'rtalarida ), Kanishka (78-123 y.y.) va Kanishka II , Vasudeva, Kanishka III, Vasudeva II nomlarini tilga olib o'tmoq joiz bo'ladi.

Kushonlar mavqeining kuchayishi Kanishka davriga to'g'ri keladi. Bu paytga kelib, Hindistonning Peshovor, Panjob, Kashmir va boshqa markaziy hududlari, Sharqiy Turkistonni katta qismi saltanat tarkibiga kiritildi. Mamlakat poytaxti Peshovorga ko'chirildi.

Kadfiz 1 davrida zarb qilingan tangalarda "Kujula Kadfiz yabg'u" degan so'zlar uchraydi. Uning o'g'li Vima Kadfiz mamlakatda pul islohatini o'tkazib og'irligi 8 gramm oltin tangalarni zarb qildirgan. Bu esa xalqaro savdoda davlat obro'yini ortishga olib keladi. Xudi shu yillarda Rim imperatori bilan savdo-sotiq ishlari kuchaydi.

Ustamon siyosatchi, yetuk sarkarda bo'lgan Kanishka mamlakat ichki hayotida muhim ijtimoiy-siyosiy va ma'naviy o'zgarishlarni amalga oshirish barobarida tashqi siyosatda ham g'oyatda uddaburonlik bilan faoliyat yuritadi. Buning din sohasida o'tkazgan islohati muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Garchand, budda dini davlat diniga aylantirilgayen bo'sada, biroq mamlakatni turli hududlarida mahalliy aholi qaysi dinga ishongan bo'lsa, e'tiqod qilgan dinga erkinligi saqlanib qoldi. Hatto o'zarb etilgan tanglarda ham Budda dinidan boshqa dinlarning xudolarning zarb etgan tangalar chiqarildi. Tangalar kushon va baqtriya tillarida chiqarilganligi alohida e'tiborga loyiqdir.

Kushonlar sulolasi davrida Dalvarzintepa , Xolchayon(Denov), Zarteap, Fayoztepa, Qoratepa, Ayritom (Termiz atrofi) kabi shaharlar nihoyatda rivojlangan. O'lkamizda sun'iy sug'orishga asoslangan dehqonchilik madaniyati juda taraqqiy etgan. Ko'plab sug'orish inshootlari barpo etildi, kanallar qurildi. Shaharsozlik , me'morchilik, haykaltaroshlik, kulolchilik kabi hunarmandchilik sohalari yuksak darajada rivojlangan.

Dalvarzintepadan 1972 yilda arxeologlar tomonidan 30 kg tilla buyumlar xazinasini alohida qimmatga egadir. Unda 115 ta bilak, xalqalar, bo'yin taqinchoqlari, oltin qo'yimlar, avlodlarimiz mahoratidan nishonadir. Kushonlar davrida madaniyatning muhim katta yutuqlaridan shuki, bunda turli qutb va mintaqalarda yashaydigan xalqlarning madaniyatlari o'zaro yaqinlashib, bir birlarini to'ldirib boyitib borgan. Bu esa turli- tuman sohalarda yaqindan hamkorlik, hamjihatlik

qilishlariga keng yo‘l ochgan umumiy yuksalishga turtki bo‘lgan va moddiy va ma’naVIy madaniyatingi rivoj topganligini namoyon etgandir .

Kushon podsholigi ruxoniylar qo‘lidagi davlat bo‘lib, bu davlatda podsho hokimiyatni boshqarish bilan birga bosh hoqon hisoblangan . Podsholik satrapiyalarga (vilotlarga) bo‘lingan bo‘lib, ularning boshliqlari ma’lum ma’noda o‘zlarini mustaqil deb hisoblaganlar.

Kushon davlati quldorlik davlati hisoblansada davlatda qishloq jamoalarining ahamiyati juda katta bo‘lgan.

Milodiy III asrning o‘rtalarida o‘zaro kurashlar avj ola boshlaydi. III asrning ikkinchi yarmida kushon podsholarining ko‘pgina yerlarini eron sosoniylari qo‘liga o‘tadi va qudratli kushon davlatini inqirozi kuchaya boshlaydi.

#### **Nazorat savollari:**

1. O‘zbekiston xududida rivoj topgan ilk shahar-davlatlar haqida gapirib bering.
2. Axmoniylarning cheklanmagan podsho hokimiyati qanday tuzilmaga ega edi.
3. Satrapliklarda boshqaruv tizimi haqida nimalarni bilasiz?
4. Aleksandr Makedonskiyning boshqaruv faoliyati; yunon-baktriya davlat boshqaruv tartibi va davlat tuzimi haqida gapirib bering.
5. Dovon va Qang‘ davlatlari hududi va boshqaruv tizimi va inqiroz sabablari?
6. Kushon davlati (podsholigida) xo‘jalik boshqaruvi qanday bo‘lgan?

#### **Foydalangan adabiyotlar ro‘yxati**

1. Karimov I.A. O‘zbekistonning o‘z istiqlol va taraqqiyot yo‘li. Toshkent-1992.
2. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va olijanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 488 b.
3. Mirziyoyev Sh.M. Milliy taraqqiyot yo‘limizni qat’iyat bilan davom ettirib, yangi bosqichga ko‘taramiz. 1-jild. – T.: “O‘zbekiston”, 2017. – 592 b.
4. Mirziyoyev Sh.M. Milliy tiklanishdan – milliy yuksalish sari. 4-jild.– T.: “O‘zbekiston”, 2020. – 400 b.
5. O‘zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2018.



6. Alimova D.A. Istoriya kak istoriya, istoriya kak nauka. T. I. Istoriya i istoricheskoye soznaniye. – T.: Uzbekiston, 2008.
7. Rtveladze E.V. Istoriya gosudarstvennosti Uzbekistana. – Toshkent: Uzbekistan, 2009.
8. Rusina Y.A. Metodologiya istochnikovedeniya. – Yekaterinburg, 2015.

#### **IV. Internet saytlar**

1. O‘zbekiston Respublikasi Oliy va o‘rtamoxsusta’lim vazirligi: [www.edu.uz](http://www.edu.uz).
2. Bosh ilmiy-metodik markaz: [www.bimm.uz](http://www.bimm.uz) [www.ziyonet.uz](http://www.ziyonet.uz)

#### IV.AMALIY MASHG‘ULOT MATERIALLARI

### **1-mavzu:O‘rta asrlarda davlatchilik va boshqaruv masalalari. Amir Temur va temuriylar davrida Movaraunnahr va Xurosonda davlatchilik rivoji.Amaliy mashg‘ulotining o‘qitish texnologiyasi.(2 soat)**

#### **Reja:**


1. Ilk o‘rta asrlarda davlatchilik va boshqaruv (V-VIII asr o‘rtalarigacha)
2. Rivojlangan o‘rta asrlar davlatchiligi va boshqaruvi
- 3.Amir Temur va temuriylar davrida Movaraunnahr va Xurosonda davlatchilik rivoji




Vaqt – 2soat	Tinglovchilarsoni: _____ nafar.
O‘quvmashg‘ulotiningshakli	Bilimlarnichuqurlashtirishvakengaytirishbo‘yicha amaliy mashg‘uloti.
Seminar mashg‘ulotiningrejasi	1. Ilk o‘rta asrlarda davlatchilik va boshqaruv (V-VIII asr o‘rtalarigacha) 2. Rivojlangan o‘rta asrlar davlatchiligi va boshqaruvi 3. Amir Temur va temuriylar davrida Movaraunnahr va Xurosonda davlatchilik rivoji
<i>O‘quv mashg‘ulotining maqsadi:</i> Tinglovchilarda O‘rta asrlarda davlatchilik va boshqaruv masalalari. Amir Temur va temuriylar davrida Movaraunnahr va Xurosonda davlatchilik rivoji mavzusiga oid bilimlarni chuqurlashtirish va kengaytirish	
<i>Pedagogik vazifalar:</i>  - Mavzu bo‘yicha bilimlarni kengaytirish va chuqurlashtirish; -bilimlarni taqqoslashni, umumlashtirishni, tahlilni tizimlashtirish ko‘nikmalarini hosil qilish; -o‘z fikrini shakllantirish va bildirish jarayonini tashkil qilish; -kommunikatsiya, guruhlarda ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish.	<i>O‘quv faoliyatining natijalari:</i> <b>Tinglovchi:</b> Ilk o‘rta asrlarda davlatchilik va boshqaruvi haqida ma’lumotlar bera oladi. Rivojlangan o‘rta asrlar davlatchiligi va boshqaruvini izohlab bera oladi. Amir Temur va temuriylar davrida davlatchilik rivoji to‘g‘risida o‘z tushunchalariga ega bo‘ladi. Movaraunnahr va Xurosonda davlatchilik rivoji ma’lumotlar bera oladi. Ilk o‘rta va rivojlangan o‘rta asrlar davlatchiligi va boshqaruvini izohlab bera oladi.
O‘qitishuslubivatexnikasi	Munozara, taqdimot, blits-so‘rov, bayonqilish.
O‘qitishvositalari	Ma’ruzatni, darslikva o‘quvqo‘llanmalar,marker,skoch, qog‘oz.
O‘qitishshakli	Ommaviy,guruhiy.
O‘qitishshart-sharoiti	Guruhlardaishlashgamo‘ljallangano‘quvxonasi


## Amaliy mashg'ulotning texnologik kartasi.

Bosqichlar, vaqti	Faoliyat mazmuni	
	O'qituvchi	Tinglovchi
1-bosqich mashg'ulotga kirish (10 daqiqa)	1.1. Mavzu maqsadi, rejalashtirilgan natijasi va uni o'tkazish rejasini aytadi  1.2. Tinglovchilarni faollashtirish maqsadida mavzu bo'yicha asosiy tushunchalarga ta'rif berishni taklif qiladi va shu asosida blits – so'rov o'tkazadi	1.1. Diqqat bilan tinglaydilar, yozib oladilar.  1.2. Savollarga javob beradilar.
2-bosqich. Asosiy (60 dakika.)	2.1. Tinglovchilarni guruhga ajratadi. O'quv topshiriqlarini tarqatadi. Har bir Tinglovchi guruh baxosiga mos ravishda baho olishini tushuntiradi, guruhlarda ishlash qoidalari bilan tanishtiradi. Guruhlarda ishlash natijasi A4 bichimidagi qog'ozlarda ko'rsatilish kerakligini ma'lum qiladi. Mavzu muhokamasi guruhlarda ishlar taqdimotidan so'ng davom etishini e'lon qiladi.  2.2. Vazifa butun guruh tomonidan bajarilishini e'lon qiladi. Vazifani bajarishda darslik, ma'ruza matnlari, konspekt daftarlari va boshqa qo'llanmalardan foydalanish mumkinligini tushuntiradi. Kutilayotgan o'quv natijalarini eslatadi.  2.3. Taqdimot va guruhlarda ishlash natijalarini o'zaro baholashni tashkil etadi. Javoblarni sharhlaydi, bilimlarni umumlashtiradi, vazifani bajarishi jarayonidagi asosiy xulosalarga e'tiborni qaratadi.	2.1. O'quv topshiriqlarini baholash ko'rsatkichlari va mezonlari bilan tanishtiradi, vazifalarni bajaradilar.  2.2. Taqdimot qiladi, to'ldiradi, boshqa guruhlarga savollar beradi va o'zaro baholashni amalga oshiradi. Yozib oladilar.  2.3. Eslab qoladi, yozadi. Har bir savolga javob berishga harakat qiladi. Sxema va jadvallar mazmunini muhokama qiladi.
3-bosqich. Yakuniy (10 daqiqa.)	3.1. Mashg'ulotga yakun yasaydi, xulosalarni umumlashtiradi, guruhlarda faol ishtirok etgan Tinglovchilarni baholaydi.	3.1. Eshitadi, aniqlashtiradi.

### O'rta asrlarda davlatchilik va boshqaruv masalalari. 1-slayd







5-slayd

Hoqondan keyingi shaxs –Yabg‘u-bahodir bosh vazirvazifisidabo‘lgan. Taxt merosxo‘ri –Tegin sha‘zoda deb yuritilgan

Hoqondan keyingi shaxs –Yabg‘u-bahodir bosh vazirvazifisidabo‘lgan. Taxt merosxo‘ri –Tegin sha‘zoda deb yuritilgan

Qorahoniylardavlati; ma‘muriy tuzilishi, hududi; davlat boshqaruv tartiblari

Markaziy Osiyo mintaqasining Yettisuv va Qo‘shg‘ar qismidagi yangi bir siyosiy sulola

.Somoniy davrida mavjud bo‘lgan boshqaruv tizimining asosiy mazmuni saqlanib qolgan.

Ma‘muriy idoralar ikkiga bo‘lingan. 1) Dargoh; 2) Devonga.

1) og‘ichi 2) biruk; 3) oshchi (bog‘archi); 4) bitikchi – munshiy; 5) kotib – mirzo; 6) qushchi

7) xoqon harbiy qo‘shinlari cherik ; 8) suvboshi yoki sipohsolarlar qo‘mondonlik qilgan;

8) kichik zobit – chovush, sipo‘iyalar to‘dasi qo‘mondoni ‘ayilboshi deyilgan

## Qoraxoniylar davlati 1-slayd

10) qo'shin o'nlik, yuzlik, mingliklarga bo'lingan. Qoraxoniylar xoqoni qo'shini harbiy lager Xonto'y deyilgan; 11) xoqonlikda elchini – yalavocho yoki yalafor deb atalgan.

Xoqonlik hududlari el, Viloyatlarga bo'lingan. XI asrning uchinchi choragida qoraxoniylar siyosiy birligi ikkiga: g'arbiy va sharqiy xoqonliklarga bo'linib ketgan.

Movarounnahrda hukmronlik qilgan qoraxoniylar namoyondalari bundan buyon markazga bo'ysunishdan bosh tortib, mustaqil siyosat yurgiza boshlaganlar. Markaz ularni bo'ysundirishga ojizlik qilgan. Biroq ham g'arb, ham sharq bir siyosiy xonadonining turli namoyondalari orqali boshqarib borilgan.


2-slayd

G'arbiy xoqonlikda (Samarqand, Buxoro, Xuttalon, Chog'oniyon) somoniylar davrida mavjud bo'lgan boshqaruv tizimi saqlanib qolingan. Masalan: bosh vazir, moliya vaziri, soqchilar vaziri va hokazolar. Oliy hukmdorning xavfsizligini saqlash uning siyosati yo'lida adolatli xizmat qiluvchi harbiy qism (gvardiya) ham dargoh boshqaruv tuzumiga kirgan. Qoraxoniylar davrida mamlakatni tashqi siyosati va diplomatiya masalalariga alohida ahamiyat berilgan.


3-slayd




4-slayd




5-slayd




6-slayd




7-slayd






### Ilova-3

## Amir Temur va temuriylar davrida Movaraunnahr va Xurosonda davlatchilik rivoji







### Ilova-3

## Amir Temur va temuriylar davrida Movaraunnahr va Xurosonda davlatchilik rivoji

1-слайд

Amir Temurning davlat boshqaruv tizimi butun hududda yagona markazlashgan siyosiy tartib asosiga qurilgan edi. Davlat o'z tarkibiy tuzilishiga ko'ra harbiy-siyosiy tartiblarga asoslangan edi. Amir Temur o'ziga qadar mavjud bo'lgan davlatchilikning sakkizta asosiga amal kiladi: Davlatning siyosiy jixatdan mustaqil bo'lishi;

9. Davlat va jamiyat siyosiy yaxlitligining buzilmasligi;
10. Davlat va jamiyatning muayyan qonunlar, tartiblar, mafkura asosida boshqarilishi;
11. Boshqaruv tizimini muvofiqlashtirib turuvchi qonun va qoidalar ishlab chiqilishining shakllangan bo'lishi;
12. Jamiyatdagi ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar ahvolining davlat e'tiborida bo'lishi;
13. Fan va madaniyat ravnaqi to'g'risida doimiy kayg'urish;
14. Har bir davr shart-sharoiti, tartiblariga ko'ra davlat jamiyat ichki taraqqiyoti masalalarining tashqi dunyodagi mavjud omillardan foydalangan holda olib borishi;
15. Davlat tepasidagi kuchlar o'tmish, zamon va kelajakni teran tafakkur, mustahkam imyon, g'oyat yuksak ma'naviyat va millatparvarlik ila anglamog'i;
16. Amir Temur davlatchilikning bu asoslariga to'qqizinchisini, ya'ni jamiyatning rivoji va barcha ijtimoiy tabaqalar manfaatlarining ta'minlanishini qo'shdi.

2-

Amir Temur davlat boshqaruvini amalga oshirsada, biroq o'sha davr davlatchilik an'alariga asosan davlatning rasmiy hukmdorlari Chingizxon xonadoniga mansub Suyurg'atmish (13270-1388 yillar) va uning o'g'li Maxmudxon (1388-1402 yillar) hisoblanar edi.

Rasmiy hujjatlar shu xonlarning nomidan bitilib, tangalarda ham shu xonlarning nomi aks ettirilsada, aslida amir darajasida bo'lgan Amir Temur tomonidan davlat boshqaruvining barcha sohalari to'raligicha amalga oshirilgan.

**Mamlakat va raiyat vaziri - mamlakatdagi umumiy holatni boshqargan va nazorat qilgan.**  
**Sipoh vaziri (harbiy vazir) - harbiy soha uchun javobgar.**  
**Mulkchilik va soliq ishlari vaziri - zakot va boj, soliqlar ishlarini boshqargan va nazorat qilgan.**

Saltanat ishlarini yurituvchi vazir (saroy vaziri) - saltanat idoralarining kirim-chiqimlari, xazinadan qilinadigan sarf-harajatlar, davlat moliyaviy tizimining nazoratchisi.  
Sarhadlar vazirlari - bu vazirlar uch nafar bo'lib tobe mamlakatlar bilan bog'liq moliyaviy va daromad ishlarini boshqarganlar.

- **Birinchi, vaziri a'zam (bosh vazir) - saltanatning muhim ishlari bilan shug'ullangan.**
- **Ikkinchi, sipoh vaziri - mamlakatning harbiy masalalari bilan shug'ullangan.**

**Uchinchi, (mulkchilik va soliq ishlari vaziri) - davlat yer-mulkleri, boj, zakot ishlari bilan shug'ullangan.**  
**To'rtinchi, (saroyvaziri) - saltanat kirim chiqimlari, xazina harajatlari bilan shug'ullangan.**  
**Beshinchi, adliya vaziri bo'lib, bu vazir devoni kuzot (qozilar devoni) ga rahbarlik qilgan.**

4-слайд

Ayni vaqtda Amir Temur tomonidan turkiy davlatchilik boshqaruvining asosiy xususiyatlaridan biri bo'lgan qurultoylarning faoliyati jonlantirildi. Qurultoyda mamlakatning taqdiri bilan bog'liq masalalar muhokama

**Qurultoy-Millat majlisi vazifasini bajargan**

Ma'muriy jihatdan mamlakat uluslar, viloyatlar va tumanlarga bo'lib boshqarilgan. Mamlakat to'rt ulusga bo'lingan va har bir ulus va viloyatlarga bo'lingan

**Mustahkamlash uchun savollar:**

1. Toxiriylar mustqillik yo‘lida qanday siyosat yuritdilar?
2. Toxiriylarda jamiyat qanday tabaqalarga bo‘lingan edi?
3. Somoniylarning xokimiyat tepasiga kelish jarayonini ochib bering
4. Somoniylarda davlat boshqaruvi devonlari va ularning vazifalari?
5. Somoniylar davrida sug‘orish tarmoqlariga qanday e’tibor berilgan?
6. Somoniylardavlatboshqaruvtizimivauningo‘zigaxosliginimada?
- 7 Somoniylar davlatida xuquqiy munosabatlar qanday tartibda amalga oshirilgan?
- 8 Qoraxoniylar davlati siyosiy tizimi nimalarga asoslangan edi?
- 9 Qoraxoniylar davlati davlat boshqaruvi qanday tartibda tashkil etilgan?
- 10 Qoraxoniylar davlatida harbiy boshqaruv tartibi va harbiylarning mavqei qanday bo‘lgan?
- 11 Anushtakin Xorazmshohlar sulolasining davlat tepasiga kelish jarayonini ochib bering.
